

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOY-IQTISODIY FAKUL'TETI

IJTIMOY-MADANIY FAOLIYAT KAFEDRASI

SHARIPOV ULUG'BEK UMARJON O'G'LI

**HADISLARNING INSONNI MA'NAVIY KOMILLIK SARI
YETAKLOVCHI OMIL SIFATIDAGI O'RNI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan – 2014

MUNDARIJA

Kirish	3-7
I bob. HADIS VA HADISSHUNOSLIK ILMI.	
1.1. Hadislar va ularning ilk manbalari.....	8-21
1.2. Imom Ismoil al-Buxoriyning hadisshunoslik ilmidagi o'рни.....	21-38
II bob. HADISLAR VA IJTIMOIIY HAYOT.	
2.1. Hadislarda ijtimoiy masalalarning yoritilishi.....	39-53
2.2. Hadislarda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida.....	54-66
Xulosa.....	67-69
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70-72

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston istiqloлга erishganidan so'ng o'tgan vaqt davomida o'ta mashaqqatli va o'z o'rnida sharafli yo'lni bosib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “O'z istiqloл va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir”, deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz”¹.

O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol ruhda tarbiyalash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi².

Xalqimiz o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab, barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga etib olishdek ezgu mavsad sari intilmoqda. Uni amalga oshirish uchun yuksak malakali, ahloqiy barkamol mutaxassislar kerak. Shu jihatdan, aqlan yetuk, ahloqan pok va jismonan baquvvat insonlarni tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning boy ma'naviy, ahloqiy merosining ahamiyati beqiyosdir. Darxaqiqat, buyuk siymolar bo'lmish ota-bobolarimsh qoldirgan ma'naviy merosni ta'lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish jamiyatimizning ahloqan barkamol a'zolarini shakllanishida samarali vositadir.

Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Buxoriy, al-Forobiy, at-Termiziy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi

¹ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 27.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Туркистон. 2014. 8 февраль.

ajdodlarimiz nafaqat yurtimiz, balki jahon ilm-fani, madaniyati xazinasiga o'zlarining bebaho ulushlarini qo'shganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning: “Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongidagi ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi”³, degan so'zlari ham ahloqiy tarbiyaning ahamiyatini yana bir karra ifoda etadi.

Respublikamiz rahbariyati tomonidan ahloqiy tarbiya muammosini xalq etishga qaratilgan ko'p ishlar amalga oshirildi: O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va boshqalar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Dasturda yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi deyilgan.

O'zbek xalqi juda boy va murakkab tarixga ega bo'lib, nafaqat hozirgi O'zbekiston hududi, balki butun O'rta Osiyo tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, IX – X asrlar tarixi jahon madaniyati, ilm-fan taraqqiyoti tarixidagi xissasining ahamiyati bilan ajralib turadi. Shu davrda bu o'lkaning butun jahonga mashhur allomalari, qomusiy bilim sohiblari bo'lmish mutafakkirlari: Imom Ismoil al-Buxoriy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, Ahmad al-Xorazmiy, as-Sog'uniy al-Usturlobiy, al-Xojandiy, al-Javhariy, at-Termiziy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar yashab, ilm-fan, madaniyat rivojiga salmoqli xissa qo'shdilar.

³ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 524.

Mustaqilligimiz keltirgan buyuk ne'matlardan biri — turfa ma'naviy qadriyatlarimiz, ko'hna va boy tariximiz, madaniy merosimizga munosabatning tubdan o'zgarib, uzoq moziyda yashab abadiy barhayot asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini chuqur o'rganish hamda ulardan keng xalq ommasini bahramand qilish, desak hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Bu yo'nalishda tarixan qisqa muddat ichida amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlar Respublika hukumati, muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov sobitqadamlik bilan olib borayotgan dono va xalqchil siyosatning samarasidir. Respublikamizda diniy ilmlarga katta e'tibor berilayotgani, Qur'oni Karimning hamda Janob Payg'ambarimiz alayhissalomning muborak hadislarining o'zbek tiliga tarjima qilinib keng ko'lamda o'rganilayotgani, ularning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotimizga tobora singib borayotgani buning yorqin dalilidir.

Ma'lumki, Movarounnahr hamda xurosonlik ko'plab olimlar jahon ilm-fani va madaniyatining ravnaqiga ulkan hissa qo'shganlar. Bu xususda Prezidentimiz I. A. Karimov: «Qadimiy Movarounnahr va Xuroson farzandlarinng jahon ilmu ziyosi tarixiga zarvaraqlar ila bitilgan asarlari oz emas» — deb alohida ta'kidlagan edilar.

Yurtimizning ko'hna tarixida juda ko'p mashhur shaxslar yashab, ijod qilib o'tganlar. Ularning orasida dunyoviy fanlar va ilohiyot bo'yicha dunyoda tanilgan olim va ulamolar alohida o'rin tutadilar. CHunonchi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-G'azzoliy, Zamahshariy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Navoiy, Yassaviy, Ulug'bek singari bobokalonlarimiz nafaqat Sharqda, balki butun jahonda mashhur bo'lgan kishilardir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yuz berayotgan voqealar, tub o'zgarishlar, demokratiyalash jaryoni bugungi kunda diniy va dunyoviy bilimlarni o'rganishga keng imkoniyat yaratib berdi-ki, bu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning o'rganilishi. Mazkur mavzuning o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, Sharqda hadis ilmi va uning turli masalalariga doir ko'plab maxsus asarlar yaratilganligining shohidi bo'lamiz. Chunonchi, Al-Hokim an-Naysoburiyning «Ma'rifat ulum al-hadiys», «Al-Mustadrak alas-Sahiyhayn», Ibn as-Salohning «Muqaddimat ibn as-Saloh» nomi bilan mashhur bo'lgan «Ulum al-

hadiys», Al-Xatib al-Bagʻdodiyning «Al-Jomiʻ li-odob ash-shayx vas-somiʻ», «Ar-Rihla fi talab al-hadiys», Ibn Qasiyrning «Al-Bois al-hasiys» kabi tasnifotlarini keltirish mumkin. Evropalik olimlar esa hadis ilmi bilan asosan XIX asrdan shugʻullana boshlaganlar. Mustaqilligimiz sharofati bilan Respublikamizda keyingi yillarda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Olimu ulamolarimizning saʼyi harakatlari bilan Imom al-Buxoriyning «Al-Jomiʻ as-sahih» asari toʻrt jildda Toshkentda oʻzbek tilida chop etildi. Allomaning boshqa bir muhim asari «Al-Adab al-mufrad» («Odob durdonalari») ham bundan bir necha yil burun oʻzbek tilida nashr qilingan edi. 1974 yilda Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy Bosh-qarmasining tashabbusi bilan Oʻzbekistonda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy hisobda 1200 yilligi, shuningdek 1993 yil oktyabr oyida Samarqandda «Imom al-Buxoriyning hayoti va davri»ga bagʻishlangan Xalqaro anjuman munosabati bilan matbuotda qator maqolalar eʼlon qilingan edi. 1990 yili Imom at-Termiziyning tavalludiga 1200 yil toʻlishi munosabati bilan ham maqolalar va allomaning «Ash-SHamoil an-nabaviyya» asari oʻzbek tilida, Imom Muslim ibn al-Hajjoj haqida esa bir risola va mahalliy matbuotda bir necha maqola chop etilgan.

Yuqorida zikr etilgan xayrli yumushlarni ado etishda Abdugʻani Abdullayev, Abdulaziz Mansur, Xoja Baxtiyor Nabixon oʻgʻli, Rahmatulloh Qori Qosim oʻgʻli, Neʼmatulloh Ibrohim, SHamsuddin Boboxonov, Ubaydul-la Uvatov kabi olimu ulamolarning xizmatlarini alohida taʼkidlash zarur. Lekin mazkur maqola va nashrlar mualliflari oʻz oldiga Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziyning hayoti va ijodiy merosini qiyosiy oʻrganishni maqsad qilib qoʻymagandilar. Ushbu mavzuni yoritishda mazkur nashrlardan hamda As-Samʼoniyning «Kitob al-ansob», Tojuddin as-Subkiyning «Ta-baqot ash-shofiiyya al-kubro», Al-Xatib al-Bagʻdodiyning «Taʼrix Bagʻdod», SHamsuddin az-Zahabiyning «Tazkirat al-huffoz», «Miyzon al-iʼtidol fi naqd ar-rijol», Ibn Xallikonning «Vafoyyot al-aʼyon», Ibn al-Javziyning «Al-Muntazam», Ibn al-Qiftiyning «Inboh ar-ruvot», Ibn Hajar al-Asqaloniyyning «Muqaddimat al-fath»

kabi tarixiy asarlaridan, arab mualliflarining soʻnggi yillarda nashr etilgan qator kitoblaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hadislarning insonni ma'naviy komillik sari yetaklovchi omil sifatidagi o'rnini har tomonlama o'rganish va ularni tahlil qilish hisoblanadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun tarixiy va mantiqiy izchillikda kompleks tarzda ilmiy tahlilini nazarda tutib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Hadis va hadisshunoslik ilmiga oid manba va adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

- Imom Ismoil al-Buxoriy va izdoshlarining hadisshunoslik ilmidagi faoliyatlarini o'rganish;

- Hadislarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va rolini belgilash;

- Ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan hadislarni tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy – uslubiy asosi. Mavzuni yoritish davomida ilmiylik, xolislik, tarixiylik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi. Mavzuni o'rganish jarayonida tanlangan mavzuga milliy va ma'naviy qadriyatlar, milliy g'oyadan kelib chiqqan holda yondashildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar va tarixiy xotiraning mohiyati, milliy madaniyatni takomillashtirish va ma'naviy komillikka erishish haqidagi asarlaridagi nazariy qarashlariga suyanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 72 sahifani tashkil qiladi.

I bob. HADIS VA HADISSHUNOSLIK ILMI.

1.1. Hadislar va ularning ilk manbalari

Islom dini ta'limoti bo'yicha eng asosiy manba Qur'ondir. Hadislar ana shu muqaddas asardan keyingi o'rinda turuvchi mo'tabar manbadir. Hadislar Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati, shuningdek, uning turli sharoitlarda diniy, falsafiy, axloqiy-ta'limiy mavzularda aytgan xilma-xil fikrlari, ko'rsatmalari yoki munosabatlarini aks ettiradi. Hadis arabcha so'z bo'lib, uning bir qator ma'nolari bor: 1) yangi, yangi narsa, yangi ro'y bergan voqea; 2) so'z, hikoya, naql, rivoyat; 3) Muhammad payg'ambar yoki uning sahobalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat.

Shulardan kelib chiqib hadislarning yuzaga kelishini uch omil bilan ko'rsatiladi: 1. Muhammad payg'ambar aytgan gaplar. 2. Uning o'zi qilib ko'rsatgan ishlar. 3. Payg'ambarimiz tomonidan ko'rilgan yoki kuzatilgan ishning taqiqlanmagani.

Ana shu uch holatning har biri sunnat deyiladi. «Sunnat» ham arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «yo'l, ravish, odat» demakdir. Istilohiy ma'noda esa Muhammad payg'ambardan qolgan urf-odatlariga aytiladi. Ularni bajarish vojibdir. Ularda islom diniga oid tushunchalar va ularning talqini, xususan, farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi tushunchalarning ma'no qamrovi, izohi o'z aksini topgan.

Hadislarning asosiy katta qismi axloq-odob masalalariga, inson manaviyati bilan bog'liq muammolarga qaratilgan. Shuning uchun ham hadislarga eng qadimgi davrlardan-Muhammad payg'ambar zamonidanoq alohida ahamiyat berishgan⁴.

Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. Hadis 2 turga — hadisi qudsiy (ma'nosi Alloh taoloniki, aytilishi rasululloh tomonidan bo'lgan hadislar) va hadisi

⁴ Abdullaev B. Ilk hadis to'plamlari haqida ma'lumotlar // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.192-195.

nabaviyga bo'linadi. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo'linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif.

Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad (s.a.v.) o'z hadislarini aytardi. Bu hadislarini payg'ambarlarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Ma'lumki, tarixan g'oyatda qisqa muddatda nozil bo'lgan Qur'oni karim oyatlari ba'zi hollarda umumlashtirilgan, murakkab holda keltirilgan bo'lganligidan Payg'ambarimiz hadislarini ushbu oyati shariflarni kengroq talqin etadi, ularni oddiylashtirib bayon qilib, unda keltirilgan voqea va hodisalarni ko'pchilikka tushunarli qilib mufassal holatda sharhlaydi.

Payg'ambar alayhissalom hadislarini u zoti sharif yashagan davr uchun haqiqiy bir ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Chunki ular sarvari olamning hayotlari, husni axloqlari, adolatli jamiyat qurish yo'lida ko'rsatgan beqiyos sa'y-harakatlari, yaxshiligini xayr-barakotga asoslangan faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Mana shularga binoan oldin o'tgan hech bir payg'ambarlar va ulug'larga ko'rsatilmagan alohida bir e'tibor bilan ilm ahllari hadislarini to'plashga kirishdilar. Hadis ilmi bilan shug'ullanish eng aziz va sevimli mashg'ulot hisoblanib, ularni to'plash uchun olimu ulamolar butun aql-zakovati-yu qalb qo'ri bilan kirishganlarini alohida ta'kidlash zarur.

Payg'ambar hayot vaqtlarida hadislarini yozib olish odat bo'lmagan. Ayrim sahobalarning fikricha, Payg'ambarning o'zlari hadislarini yozma qayd etishni man qilganlar. «Mendan Qur'ondan boshqa hech narsa yozmanglar, agar kimki biror narsa yozgan bo'lsa, o'chirib tashlasin. Mendan faqat hadis aytinglar, xolos. Buning hech zarari yo'q», deb uqdirganlar avvaliga Payg'ambar alayhissalomning o'zlari. So'ngra Payg'ambarning o'zlari Abdulloh ibn Amr ibn al-Ossga izn qilganlaridan keyin hadislar zarur hollarda yozma ravishda ham qayd etila boshlagan. Payg'ambar vafotidan so'ng hadislarini naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan bir guruh musulmonlar uni yozma shaklda to'play boshladilar. Birinchi hadis kitobini Ibn Shihob az-Zuhriy yozdi. Undan keyin birin-ketin hadis to'plamlari tasnif etila boshladi. Lekin bu to'plamlar muayyan tartibga solinmagan,

boblarga ajratilmagan bo'lib, ularda payg'ambar hadislarini bilan sahobalar va tobe'inlarning fatvolari chalkashtirib yuborilgan edi.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, umaviy xalifasi Umar ibn Abdulaziz davrida (717 — 720) muhaddis olim Muhammad ibn SHihob az-Zuqriy (670-721) *tadvin*, ya'ni hadislarini qayd etishni boshlab bergan. Hadislarni yozib borish, hadis to'plamlarini tuzish rasmiy ravishda mazkur xalifa tomonidan buyruq berilganidan so'ng keng tus olgan va an'ana tarzida odat tusiga kirgan.

Payg'ambar vafot etganlaridan so'ng ma'lum darajada tortishuv va munozaralardan keyin har xil mavzularga doir hadislar kitobat holiga keltirila boshlandi. Masalan, sahobalardan Jobir ibn Abdulloh haj ziyoratining yo'l-yo'riqlari («Manosik al-haj») xususidagi hadislardan bir kichik kitob bitgan bo'lsa, Samara ibn Jundab esa Rasulullohdan eshitgan hadislarini asosida o'z o'g'illariga bir vasiyatnoma yozib qoldiradi. «Tobe'inlar davrida esa hadislarini kitobat etishga qarshilik qiluvchilar ozchilikni tashkil etib, uning kitobatini qo'llab-quvvatlagan tobe'iyinlar esa aksariyatni tashkil etardi. Ushbu davrda, ya'ni sahobalar va tobe'iyinlar davrida ikki xil fikr qaror topib, hadislarini ham yozma, ham og'zaki tarzda rivoyat qilish odat tusiga kirgan edi»⁵.

Hadislarni tadviyn etish ularni muayyan bir to'plamga yig'ish, demakdir. Dastavval hadislarini to'plam shaklida qayd etishni boshlagan olim Abdulaziz ibn Marvon (vafoti 704 yil) hisoblanadi. U Misrda amirlik vazifasida bo'lgan, lekin o'z maqsadiga erishmasdan burun vafot etadi. Uning ishini o'g'li Umar ibn Abdulaziz (vafoti 720 yil) davom etdiradi. Hadislarni bu tariqa qayd etilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar ularni sahih (to'g'ri, ishonchli)larini noqis mavzulari bilan aralashib ketishining oldini olish va muayyan hadisni rivoyat qilgan roviy va ulomalarning vafotlari tufayli ularning yo'q bo'lib ketish xavfidan edi. Shu boisdan ham Umar ibn Abdulaziz hadislarini yozma qayd etishni buyurganda Madina ahliga «Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini eshitgan zahotingiz yozib olingizlar, chunki uni bilgan ulamolarning dunyodan o'tib ketishlaridan

⁵ Abdullaev B. Ilk hadis to'plamlari haqida ma'lumotlar // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.192-195.

xavotirdaman», deb yozgan edi. Umar ibn Abdulaziz bu muhim vazifani topshirgan muhaddislarning boshliqlaridan Abu Bakr ibn Muhammad ibn Amr ibn Hazm, Muhammad ibn Muslim ibn Shihob az-Zuhriylar bor edi⁶.

Hadislarni kitobat qilish tarixi, shartli ravshsda, to‘rt bosqichdan iborat bo‘lgan, deb aytish mumkin. Birinchi bosqichda, odamlar (bu erda sahobalar nazarda tutilmokda) hadislarni tartibsiz holda qo‘chirib yozganlar. Bunda hadislar boblarga yoki mavzularga ajratilmasdan, to‘g‘ri kelgan hadis yozib olinavergan. Ikkinchi bosqichda ayrim shaxslar (bu erda ham sahobalar nazarda tutilmokda), o‘zlari yod olgan hadislarni muayyan to‘plam shakliga keltirganlar. Bu to‘plamlar "*sahifa*" deb atalgan. Uchinchi bosqichda hadisi shariflar katta hajmli kitoblarga jamlangan. Lekin bu bosqichda ham hali hadisi shariflar mavzularga ajratilib, bob-bob qilinmagan edi. To‘rtinchi bosqichda xadisi shariflar mavzularga ajratilib, alohida kitob holiga keltirilgan. Payg‘ambar (s.a.v.) va sahobalar davrida hadislarni avvalgi ikki turda to‘plash uslubi keng tarqalgan edi.

Ayrim tadqiqotchilar Payg‘ambar (s.a.v.) davridan e‘tiboran Umar ibn Abdulaziz davrigacha hadislar to‘planganini inkor qiladilar. Ular quyidagi uchta omilni bunga sabab qilib ko‘rsatadilar: sahobalar va *tobeinlar* hamda bu davrda yashaganlarning ko‘pchiligi yozishni bilmaganlar, ularning zehnlari shu darajada kuchli bo‘lganki, hadislarni yozishga ehtiyoj tug‘ilmagan va nihoyat uchinchisi, hadislarni yozib olish ma‘qullanmagan (odamlar bu ishdan qaytarilganlar). Bu fikrlardan avvalgi ikkitasiga qo‘shilish qiyin, chunki, ko‘pchilik yozishni bilmagani yoki xotiraning kuchliligi hadislarni yozishdan to‘xtata olmaydi. Zotan, yozishni biladigan mashhur sahoba va olim *tobeinlar* hadis majmualarini tuzishi mumkinligi o‘z-o‘zidan ma‘lum.

Odamlarning hadislarni yozishdan qaytarilganiga muhaddislardan Muslim ibn al-Hajjoj (821 —875) rivoyat qilgan quyidagi bu hadisni dalil qilib keltiradilar:

"Mendan hadis yozib olmanglar. Kimki mendan Qur'ondan boshqani yozsa, uni o'chirib tashlasin!".

⁶ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O‘zbekistan Milliy Ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.12.

Muqaddislar tomonidan keltirilgan mazkur hadis sahihdir. Umuman, hadislarni yozishni yoqtirmagan sahobalar faqat uch nafar bo'lib, ular Abu Hurayra (602 - 679), Abu Said al-Xudriy (609 - 693) va Zayd ibn Sobit (615 — 665) bo'lgan, xolos. Ular ham hayotlarining oxirlarida hadislarni yozib borishni ma'qullaganlar.

Haqiqatan xam, islomning ilk davrlarida odamlar hadislarni yozishdan qaytarilganlar. Hadisni yozuvchilar ozchilikni tashkil qilar, ular ham har xil narsalarga hamma kerakli hadislarni bir joyga yozib qo'yardilar. U vaqtda xurmo barglari, sopollar, daraxt po'stloqlari va boshqa narsalarga yozilardi. Ikkinchidan, hali u davrda Qur'oni karimning o'ziga xos uslubini, uning matnini sahobalar ajratib ololmagan edilar. Agar hadislar ham yozib olinsa, Qur'on bilan aralashib ketish xavfi bor edi, Ushbu xatarning oldini olish maqsadida Payg'ambar (s.a.v.) xadislarni yozib olishni man qilganlar. Keyinchalik, Qur'onning uslubini va matni aniq bo'lganidan so'ng hadisi shariflarni ham yozib olishga ijozat berilgan. Sahobalar orasida Abdulloh ibn Amr ibn al-Oss (616 — 684) hadislarni yozib olishi bilan shuqrat qozongan edi. Uning o'zi bu haqda shunday rivoyat qilgan: *"Men Payg'ambar (s.a.v.)dan eshitgan har bir narsani, saqlab qolish maqsadida, yozib olar edim. Qurayshliklar: "Eshitgan har bir narsani yozib olaverasanmi?! Axir, inson g'azablanishi, rozi bo'lishi mumkin",— deb meni bundan qaytardilar. Men yozishdan to'xtab qoldim. So'ng bu haqda Payg'ambarga (s.a.v.) gapirib berdim. Ul zot barmoqlari bilan og'izlariga ishora qildilar va "YOzaver, nafsim qo'lida bo'lgan zot — Allohga qasamki, bu og'izdan faqatgina haqiqat yuzaga chiqadi", dedilar.*

Yana Abdulloh ibn Amr ibn al-Ossning (r.a.) bunday rivoyat qilgani muqaddislar tomonidan keltirilgan: Payg'ambar (s.a.v.): "Ilmni bog'langlar!" — dedilar. Men undan: "Uning bog'lami nima?" — deb so'radim. Ul zot dedilar: "Uni yozib olishdir", — dedilar. Muqaddislarning aytishlaricha, boshqa sahobalar ham xuddi shunday nasihat qilganlar.

Abu Iso at-Termiziy (825 — 892) ham *"Ilm kitobi"* da hadislarni yozib olishga ruxsat berilganiga alohida bob ajratgan. Unda Abu Hurayradan (r.a.) bir

hadis rivoyat qilingan: bir ansoriy Payg‘ambar (s.a.v.)ning oldilarida o‘tirar edi. U Payg‘ambardan (s.a.v.) ajoyib hadislarni eshitib, juda taajjubga tushardi. Lekin ularni yodlab ololmasdi. SHunda u Payg‘ambarga (s.a.v.) bu borada shikoyat qiladi: "Men sizdan ajoyib hadis eshitdim. Lekin yodlab ololmay qoldim" — deydi. SHunda Payg‘ambar (s.a.v.) unga: "Ung qo‘lingni yordamga chaqir!", deb o‘ng qo‘l bilan hadisni yozib olishga ishora qilgan ekanlar.

Muhaddislar Abu Hurayradan (r.a.) mavzuga doir yana bir rivoyatni yozib qoldirganlar: Payg‘ambar (s.a.v.) xutba qildilar va uning orasida bir qissani gapirib o‘tdilar. Abu Shoh (r.a.): "Ey Rasululloh, buni menga yozib bering!" — dedi. Shunda, Payg‘ambar (s.a.v.) huzuridagilarga yuzlanib: Abu SHoh uchun yozib beringlar!" — dedilar.

Yuqoridagi hadislardan ayon bo‘lishicha, keyinchalik hadislarni yozishga ijozat berilgan. Demak, Payg‘ambar (a.s.) davridayoq hadislarning yozib olinishi sodir bo‘lgan. Shuning uchun ham hadisshunos olim Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy (1233-1277): "Aslida, islom boshlanishida ham, keng yoyilganidan keyin ham hadislarni yozishdan qaytarilgan emas. Hadislarni yozishga mutlaq ijozat bo‘lgan edi. Payg‘ambar (s.a.v.) yozishdan qaytarganlari haqida keltirilgan hadisning ta‘vili bor. Ayrim sahobalar Qur‘onni kitobat qilar ekanlar, ba‘zi oyatlar va kalimalarning tafsiri ma‘nosida ularning yoniga yoki tagiga Payg‘ambarning (s.a.v.) bu borada aytgan gaplarini ham yozib qo‘yardilar. Aynan mana shu holat o‘ta xatarli edi. Chunki, bu holatda Qur‘on bilan hadisning aralashib ketishi turgan gap edi. Shuning uchun ham Payg‘ambar (s.a.v.) mana shunday holatlardan qaytargan edilar. Ta‘qiq esa, Qur‘on bilan hadis alohida-alohida yozilsin, degan ma‘noda edi". Navaviy aytgan gapning tasdig‘i sifatida Oisha (r.a.) o‘zining quliga Qur‘on ko‘chirtirganini keltirish mumkin. U mazkur Mushafning quyidagi oyati kelgan joyda unga qo‘shimcha yozdirib qo‘ygan:

Oisha (p.a.) oyatdagi "al-vusto" so‘zidan so‘ng "solat al-asr"ni yozdirib qo‘ygan ekan. U "al-vusto" so‘ziga izoh berib ketish uchun shuni yozdirib qo‘ygan. Ma‘lumki, "salot al-asr" so‘zi Qur‘onda keltirilmagan. Payg‘ambar (s.a.v.), mana shunday narsalardan qaytargan edilar. Islomning ilk davrlarida

Qur'on bilan sharhni farqlaydigan usullarni qo'llash xali odat tusiga kirmagan edi. Hozirgi vaqtda biz oyatlarning tagiga yoki ustiga chizish, ularni boshqa rang bilan alohida yozish, izoh yoki tafsirni qavs bilan berish kabi bir qancha kitobat usullarini bilamiz. U vaqtlarda hali bunday alomatlar iste'molda qo'llanmagan edi. Agar oyat bilan uning tafsiri birga yozilsa, ularni ajratib olish qiyin bo'lardi. SHuning uchun Payg'ambar (s.a.v.) oyatga beriladigan tafsirlarni oyatlar bilan birga yozishdan qaytargan edilar.

Payg'ambar (s.a.v.) hamda sahoba va *tobeinlar* davrida, aniqrog'i hadislarni yozib olishga rasmiy ravishda ruxsat berilgunga qadar ham bir necha hadis to'plamlari va majmualari tuzilgan.

Payg'ambar (s.a.v.) davrida tuzilgan hadis to'plamlaridan biri "*Kitob as-sadaxr*" nomi bilan tanilgan bo'lib, undagi hadislarni Payg'ambarning (a.s.) o'zlari yozdirganlar. Unda zakot, ushr, sadaqalar kabi moliyaviy mavzularga taalluqli masalalar bayon etilib, mavzuga oid hadislar keltirilgan. Bu mavzular siyosiy ishlarga aloqador bo'lgani bois, Payg'ambarning (s.a.v.) o'zlari ana shunday to'plamni atrofdagi voliy'larga, ushr va zakot yig'uvchilarning har biriga berish maqsadida yozdirganlar. Muqaddislarning aytishlaricha, yozib qo'yilgan mazkur maktub shaklidagi hadis to'plamining nusxalari jo'natilishidan biroz avval Payg'ambar (sa.v.) vafot qiladilar. Shundan so'ng bu to'plam xalifa Abu Bakr Siddiq (571 — 634) oldida, undan so'ng xalifa Umar al-Foruq (585 — 644) huzurida, so'ng uning o'g'li Abdulloh ibn Umar (612 — 693) qo'lida saqlanib qolgan. Undan esa hazrati Umarning (r.a.) nevarasi Solim ibn Abdullohning (vaf. 725 y.) qo'lga kelib tushgan. Hadis rivoyatlarida eng sahih isnodlardan biri deb zikr qilinadigan az-Zuhriy Solim Abdulloh ibn Umar — Rasululloh (s.a.v.) silsilasi shu tariqa vujudga kelgan. Mazkur hadis to'plami hazrati Umarga (r.a.) qiz tarafdan avlod hisoblangan xalifa Umar ibn Abdulazizga avloddan-avlodga o'tib, etib kelgan.

Ilk hadis to'plamlaridan ikkinchisi sahoba Amr ibn Hazm (vaf. 673 y.) sahifasi hisoblanadi. Payg'ambar (s.a.v.) Amr ibn Hazmni Najron tarafga elchi qilib jo'natganlarida, unga ushbu sahifani berganlar. Payg'ambar (s.a.v.) aytgan

hadislarni Ubay ibn Ka' b (vaf. 642 y.) kotib sifatida yozib - olgan. Muhaddislarning rivoyatlarida naql etilishicha, ushbu to'planning hajmi ancha katta bo'lib, unda, asosan, tahorat, namoz, zakot, haj kabi ibodatlar borasidagi hadislar keltirilgan. Mashxur hadisshunos, hadislarni rasmiy ravishda yozishni boshlab bergan Ibn Shihob az-Zuhriy mazkur to'plamni o'qib chiqqan va undagi qasos, xunpuli haqidagi hadislarni rivoyat qilgan. Imom Buxoriy (810 — 870)ning rivoyat qilishicha, Amr ibn Hazmning (r.a.) nevarasi Abu Bakr ibn Muhammad ibn Amr ibn Hazm (vaf. 737 y.) Madinada qozilik qilgan bo'lib, xalifa Umar ibn Abdulaziz unga hadislarni to'plab, bir majmua tuzishni buyurgan. U otasi tuzgan hadislar to'plami va o'zi rivoyat qilgan hadislar asosida yangi to'plam tuzgan bo'lishi kerak. Ushbu kitob Zuhriyning hadislar to'plamidan keyin tuzilgan rasmiy ravishdagi ikkinchi to'plam hisoblanadi.

Sahobalar tomonidan tuzilgan, islomdagi ilk hadis to'plami "*as-Sahifat as-sodiqa*" ("*Ishonchli sahifa*") deb nomlangan bo'lib, uni Abdullah ibn Amr ibn al-Oss (r.a.) tuzgan. Aqmad ibn Hanbal (780 — 855) o'zining "*Musnad*" asarida uning shu nomda hadis to'plami tuzganini rivoyat qilgan. Bu sahobalar davridagi nisbatan hajmi eng kattasi bo'lgan xadis to'plami edi. Hozirgi vaqtda ushbu to'plamdagi hadislarning umumiy sonini aniqlash mushkul, biroq, "*Sahihi Buxoriy*"da Abu Hurayra (r.a.)dan bir rivoyat keltirilgan. Jumladan, "*Kitob al-ilm*" bobidagi mazkur hadisda shunday deyilgan:

"Payg'ambar (s.a.v.) ashoblaridan faqat Abdulloh ibn Amrdan o'zga hech kim mendan ko'ra ul zotdan ko'prok, hadis aytuvchi yo'q edi. U-esa (hadislarni) yozib olar, men esa yozmas edim".

Abu Hurayraning (r.a.) gapidan ma'lum, bo'lmoqdaki, Abdulloh ibn Amr (r.a.) to'plagan hadislar uning hadislaridan ko'proq bo'lgan. Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qilgan hadislar bizga ma'lum. Ularning umumiy soni 5364 ta yoki o'nta farqi bilan 5374 tadir⁷.

Bunga qo'shimcha qilib aytish o'rinliki, muqaddis Abu Dovud (817 — 889) ham Abdulloh ibn Amr (r.a.)ning gapini zikr qilgan:

⁷ Islom ensiklopediyasi. A-H. –T.: O'zbekiston milliy ensklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. –B.17.

"Men Payg'ambardan (s.a.v.) eshitgan har bir narsani yod olishni istaganim uchun yozib olar edim".

Demak, Abdulloh ibn Amr (r.a.)ning hadisi shariflarni yozib olgani aniq, Abu Hurayra (r.a.) esa uning o'zidan ko'ra ko'proq hadis bilishini e'tirof qilgan. Demak, aslida Abdulloh ibn Amr (r.a.) to'plagan hadislar 5374 tadan ko'ra ko'proq bo'lgan. *"Asad ul-g'oba fi ma'rifati-s-sahoba"* (*"Sahobalarni tanishda o'rmon sheri"*) asarida uning minglab hadislarini yod bilgani qayd etilgan. Lekin hozirgi vaqtda mavjud hadis kitoblarida undan rivoyat qilingan xadislarning umumiy soni Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadislarining soniga qaraganda ancha kamroqdir. U rivoyat qilgan hadislarining umumiy soni 700 atrofidadir. Buning sababi Abu Hurayra (r.a.) Madinada istiqomat qilgan. Madina ilm markazi bo'lib, tolibi ilmlar to'planadigan, islom olamiga ilm tarqatiladigan poytaxt edi. Binobarin, Abu Hurayra (r.a.) o'zi bilgan hadislarini ko'proq rivoyat qilish va ko'proq shogird chiqarish borasida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan. Abdulloh ibn Amr (r.a.) esa, Shomda, ya'ni islom markazidan ancha uzoqda istiqomat qilgan. SHu bois, unga murojaat qiluvchi shogirdlarning soni nisbatan kamroq bo'lgan. SHuning uchun Abdullox ibn Amr (r.a.) rivoyat qilgan hadislar adad e'tiboridan Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qilgan hadislardan oz bo'lib qolgan.

Hijriy ikkinchi (milodiy sakkizinchi) asrning o'rtalaridan e'tiboran hadislarini tasnif etish ham boshlanadi. Eng avvalo ularni boblarga ajratib tasnif etgan olimlardan Ar-Rabiy ibn Subayh as-Sa'diy (vafoti 777 yil), basralik Sa'iyd ibn Abu Aruba (vafoti 773 yil), yamanlik Xolid ibn Jumayl, Muammar ibn Roshid al-Azadiy (vafoti 770 yil), makkalik Abdumalik ibn Abdulaziz ibn Jurayj (vafoti 768 yil), Sufyon ibn Uyayna (vafoti 812 yil), kufalik Sufyon ibn Sa'iyd as-Savriy (vafoti 778 yil), basralik Hammod ibn Salma (vafoti 783 yil), Shomdan Al-Valiyd ibn Muslim (vafoti 810 yil), rayylik Jurayr ibn Abdulhamiyd (vafoti 803 yil), Xurosondan Abdulloh ibn al-Muborak (vafoti 797 yil), Vositdan Xushaym ibn Bashiyr (vafoti 799 yil), kufalik Zakariyo ibn Abu Zoida (vafoti 767 yil), Muhammad ibn Fuzayl ibn G'azvon (vafoti 810 yil), Vakiy' ibn Jarroh (vafoti 813 yil), yamanlik Abdurrazoq ibn Hammom (vafoti 827 yil)larni ko'rsatish mumkin.

Shu davrda yaratilgan asarlarni tahlil etib aytish mumkinki, ularning aksariyati muayyan bir mavzuga, masalan, tafsir, axloq-odob, g'azot, shar'iy ahkomlar kabi masalalarga bag'ishlangan edi. Mazkur asarlar Payg'ambar alayhissalomning hadislari, sahoba va tobe'iyning so'zlarini o'zida mujassam etgan edi. Ayni vaqtda ushbu asarlar hadislarning to'plami sifatida bo'lib, ularning ishonchli (sahih)ligi masalasiga unchalik e'tibor berilmagandi. Hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrdan boshlab esa, hadislarni jamlovchi (jomi'), musnad va mu'jam shaklidagi yirik asarlar paydo bo'la boshladiki, tarkibiy jihatdan ularni uch asosiy qismga bo'lish mumkin⁸.

1. Boblarga ajratilgan yirik asarlar (Al-Javomi' al-mubavabba). Bu asarlar turli-tuman mavzularni o'zida qamragan bo'lib, ularga boblarga ajratilgan holda tartib berilgan.

Mana shu asarlardan Imom Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih", Imom Muslim ibn al-Hajjojning "Al-Jomi' as-sahih", Termiziyning "Al-Jomi' al-Kabir", imom Abu Dovudning "As-Sunan", imom Nasaiyning "As-Sunan", imom Ibn Mojaning "As-Sunan", imom Ad-Dorimiyning "As-Sunan" kabi asarlarini ko'rsatish mumkin.

2. Musnadlar (Al-Masoniyd).

Bu uslubdagi asarlarda ma'lum bir sahobaning rivoyatlari bir joyda zikr qilinib, undan keyin ikkinchi sahoba davom ettiradi. Bu asarlarda keltirilgan hadislarga mavzularga rioya qilinmaydi. Masalan, imom Ahmad ibn Hanbal o'zining "Al-Musnad" nomli yirik asarida avval to'rt to'g'ri xalifalarning (chahoryorlar) rivoyatlarini keltirib, keyin birin-ketin boshqa sahobalarning rivoyatlarini keltiradi. Hammasi bo'lib uning asarida to'qqiz yuz to'rtta sahoba zikr qilinadi. Muallif o'z asarini boblarga ham bo'lganligini aytish mumkin.

3. Mu'jamlar (Al-mao'jim). Bu xildagi to'plamlarda musannif asariga o'z shuyux (ustoz)larining hadislarini kiritib, ularning ismlarini mu'jam (alifbo) tartibida keltiradi.

Payg'ambar alayhissalomning hadislari Islom jamiyatining ijtimoiy va ma'naviy hayotida o'z mazmun-mohiyatiga qarab egallagan o'rinlari ham turlicha

⁸ Abdullaev B. Ilk hadis to'plamlari haqida ma'lumotlar // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.194-195.

bo'lgan. Shunday hadislar bo'lganki, ularni jamiyatning barcha a'zolari bilishlari zarur bo'lgan, ya'ni bu xildagi hadislar ommaviy iste'molda bo'lgan. Shu boisdan ham ulamolar, muhaddislar mana shunga asoslanib, ularni targ'ib qilganlar, lekin ba'zi hadislar bo'lganki, ularni ayrim shaxslar bilishining o'zi kifoya bo'lgan. Mana shu xususiyatlarga ko'ra hadislarini ba'zi olimlar, jumladan imom Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy ikki asosiy qismga bo'ladi:

1. Uzluksiz hadislar (al-hadis al-mutavotir). Bu xildagi hadislarining roviylari juda ko'p bo'lib, ular bir-birlariga bog'lanmagan va yolg'on (kizb) gapirishlari amalda mumkin bo'lmagan roviylardir. Bu xildagi hadislar ayniqsa jamiyat a'zolarining amaliy hayotiga, masalan, namoz, ro'za, zakot, haj farzlariga doir hadislarida ko'p uchraydi.

Shuningdek, uzluksiz hadislar ikki xilda bayon etilishi mumkin: lafziy uzluksizlik - bunda hadisdagi so'zlar (lafzlar) deyarli o'zgartirilmay bir xilda bo'ladi. Mazmuniy (ma'noviy) uzluksizlikda esa rivoyat qilinadigan voqealar qisman o'zgartirilishi (ya'ni, juz'iy farqli bo'lishi) ham mumkin.

2. Yakka hadislar (al-ohad). Istiloh sifatida bu hadislarida uzluksiz hadislarining shartlari bo'lmaydi, bu xildagi hadislar roviylarining soni chegaralangan - ko'pincha bitta bo'ladi. Odatda yakka hadislar dalil va isbotlar bilan asoslanadi. Bunda ushbu hadisni naql qiluvchisining to'g'ri so'zligi, rivoyat qilinadigan hadisni xatodan xoli bo'lib, ishonchli bo'lishligi kabi masalalar ilm ad-diroyat orqali chuqur tadqiq qilinadi. Yakka hadislar uch xil bo'ladi:

1. G'arib hadislar. Muhaddislar fikricha, bir roviy tomonidan rivoyat qilingan hadislar g'arib hadislar, deb ataladi.

2. Aziz hadislar, deb ikki roviy rivoyat qilgan hadislariga aytiladi.

3. Mashhur hadislar, deb ikkitadan ortiq roviy rivoyat qilgan hadislariga aytiladi. Biroq bu hadislar uzluksiz hadislar darajasiga yetishmaydi va ular sahih (ishonchli, to'g'ri), hasan (yaxshi, ma'qul) va zaif hadislar bo'lishlari mumkin. Oliy isnod (al-isnod al-oliy) va pastlovchi isnod (al-isnod an-nozil). Rasulullohga nisbatan bo'lgan roviylarning ko'pligi yoki ozligi hamda o'tgan vaqtiga qarab isnodning oliyligi yoki quyilashuvi belgilanadi. Imom al-Buxoriy keltirgan

hadislarning isnodi, ko'pincha u bilan Payg'ambar o'rtasida uch roviydan tashkil topadi. Boshqa hollarda esa mazkur hadisning rivoyat qilganda uning isnodi to'rt yoki besh roviydan bo'lishligiga ham erishadi. Binobarin hadisshunoslikda uch isnodliklar isnod oliy, to'rt va besh isnodliklar esa isnod nozil (quyilovchi isnod), deb qabul qilingan. Oliy isnod mansub hadislarning sahiih (ishonchli) bo'lishlari asosiy shartlardan hisoblanadi.

Al-Hadis al-marfu'. Bu xildagi hadislar (isnodi bog'lansa ham yoki bog'lanmasa ham) Payg'ambar alayhissalomga borib bog'lanadi (taqaladi). Bunday hollarda ushbu hadisni sahiih yoki zaif, muttasil yo munqati', undan sahoba yoki tobe'iy tushib qolishi ham mumkin, bulardan qat'iy nazar bular marfu' hadislar sirasiga kiradi. Marfu' hadislar ikki xil bo'ladi:

1. Al-Marfu' as-sariyh (ochiq-oydin marfu'). Bu xildagi hadislarda Payg'ambarga mansublik bevosita ta'kidlanadi. Masalan, "Payg'ambar degan" (qola), "Payg'ambarni ko'rdim" (raaytu) yoki "Payg'ambar bizga buyurgandi" (amarano) kabi iboralar mavjud bo'ladi.

2. Al-Marfu' al-hukmiy (hukm etilgan, buyurilgan). Bu tarzdagi hadislarda to'g'ridan-to'g'ri Payg'ambarga ishorat qilinmay, pinhoniyy (dimniyy) keltiriladi. Sahoba yoki tobe'iynlardan birontasi Payg'ambarga mansub etmay, shar'iy hukmlardan biror masalani gapiradi, biroq bu fikr uni o'zidan chiqmagan bo'lib, odatda Payg'ambardan olgan bo'ladi.

Al-Hadis al-mavquf, deb sahobalarning so'zlari yoki harakatlari mansub etilgan hadislariga aytiladi. Chunonchi, sahobalar Payg'ambar alayhissalomning suhbatida bo'lib, uning rushdu-hidoyatidan va odobidan bahramand bo'lganlar. Ulamolarning ham sahobalarning so'zlari va ishlariga ehtiyojlari katta bo'lgan. Mana shu sabablarga ko'ra, sahobalarning so'zlari (qavllari) va ishlari (af'ol) ham hadis kitoblariga kiritilgan.

Al-Hadis al-maqtu', deb tobe'iynlarning so'zlari va ishlari keltirilgan hadislariga aytiladi. Tobe'iynlarning so'zlari va qilgan ishlari ham ulamolarning diqqat markazida bo'lgan, chunonchi, ular sahobalar bilan muloqotda bo'lib,

shari'at ahkomlarini ulardan olganlar. Payg'ambar alayhissalom ham yaxshi insonlar, deb bashorat berganlarida ularni ko'zda tutganlar.

Sahih hadislar, deb isnodi boshidan oxirigacha adolat bilan hech bir kamchilig-u illatsiz rivoyat qilinadigan hadislarga aytiladi. Sahih hadislarining yana talay shartlari ham bo'lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Sanadni uzluksiz bog'lanishi (ittisol as-sanad) - bu shundayki, hadisni rivoyat qiluvchi roviylarning silsilasi boshidan oxirigacha hech bir uzluksiz bo'lishi shart.
2. Keltiriladigan hadis roviylarining hammasi o'z dinida adolatli, sobitqadam kishilar bo'lmog'i kerak.
3. Rivoyat qiluvchi komil musulmon bo'lishi shart, chunki ular dinda mustahkam insonlardir.
4. Rivoyat qiluvchi aql-idrokli kishi bo'lmog'i zarur.
5. Roviyy balog'atga yetgan inson bo'lishi kerak.
6. Roviyy fisqu-fasoddan xoli, sog'lom fikrlovchi inson bo'lishi kerak.
7. Uzuq-yuluqni rivoyat qilishdan xoli kishi bo'lishi zarur.

Hijriy III asrda hadis ta'lif etish sohasida "musnad", "sahih", "sunan" deb atalmish turli yo'nalishlar vujudga keldi. "Musnad" yo'nalishida tasnif etilgan to'plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko'ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan. Abu Hanifa, Ahmad ibn Hanbalg'ing hadis kitoblari shu yo'nalishga mansub. "Sahih" yo'nalishiga tug'ri, ishonarli hadislar kiritilgan. Bu yo'nalishga Imom Buxoriy asos solgan. "Sunan" yo'nalishidagi to'plamga esa, to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda "zaif" hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Abu Iso at-Termiziy, Nasoiy, Ibn Moja to'plamlari shu yo'nalishda mansubdir.

Movarounnahrda birinchi bo'lib Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy hadis to'plamini ta'lif etgan. Bundan tashqari Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rohavayh al-Marvaziy, Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma'qul an-Nasafiy va boshqalar hadis to'plamlarini tasnif etishgan. Keyinchalik, milliy-siyosiy ixtiloflar natijasida, payg'ambar nomidan yolg'on hadislar to'qish, fiqh va kalom ilmi sohasidagi

ziddiyatlar, amir va hokimlarga xushomadgo'ylik oqibatida ko'plab ishonarsiz, to'qima hadislar yuzaga kelgan.

Davr o'tishi bilan hadislar tanlanib, muhim deb hisoblanganlari bir tizimga solina boshladi. IX— X asr boshlarida dindorlar orasida eng ishonchli deb tanilgan hadisning 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: "Sahihi Buxoriy", "Sahihi Muslim" (Muslim ibn Hajjoj), "Sahihi Termiziy", "Sunani Abi Dovud", "Sunani Ibn Moja", "Sunani Nasoiy", "Sahihi Buxoriy" ko'proq e'zozlanadi. Bu 6 ta hadis to'plamini tuzgan muhaddislardan 2 tasi movarounnahrlik, 4 tasi esa xurosonlik bo'lgan. Hadislar to'plami sunna deb nom olgan. Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan⁹.

Islomni qabul qilgan xalqlar madaniy va g'oyaviy merosining ko'p unsurlari islomga hadis shaklida o'tgan. Hadis yig'ish o'rta asr musulmon madaniyatining muhim xususiyati bo'lib, bilim izlashning asosiy mazmuni hisoblangan. Hadis har qanday ilmiy asarni asoslashning muhim qismi bo'lgan; undan hikmatli so'z va matal sifatida ham foydalanilgan. Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" asari islom olami oliy o'quv yurtlarining shariat fakultetlarida asosiy o'quv qo'llanmasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" Hadislar to'plami 4 jildda (1-jild — 1991, 2- jild - 1996, 3- jild - 1994, 4- jild -1992), 2 nashri esa 1997 yilda Toshkentda nashr etildi. Abu Iso Muhammad Termiziyning "Sahihi Termiziy" hadislar to'plami 1-jildining o'zbekcha tarjimasi 1999 yil Toshkentda chop etildi. Bulardan tashqari "Ming bir hadis" tarjimasi, "Qudsiy hadislar" tarjimasi ham nashr etildi.

1.2. Imom Ismoil al-Buxoriyning hadisshunoslik ilmidagi o'rni.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarish to'plash, ularning sahihlarini (to'g'riklarini, ishonchlilarini) ajratib, Qur'oni Karim oyatlari bilam isbotlash borasida Movarounnahr va Xuroson olimlarining hissalarini benihoyat katta bo'lgan. Chunonchi, Movarounnahr farzandlari — oltita mashhur muhaddis yaratgan asarlar shular jumlasidandir.

⁹ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.62

Diyorimizdan chiqqan buyuk alloma Imom al-Buxoriyning hadislarga bag'ishlangan to'rt jilddan iborat «Sahiyh al-Buxoriy» asari (u «Al-Jomi' as-sahiyh» deb ham yuritiladi) butun Islom olamida haqli ravishda Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba' hisoblanadi¹⁰.

Imom al-Buxoriyning ismlari Muhammad, kunyalari Abu Abdulloh, laqablari-«Imom al-muhaddisiyn» («Muhaddislar imomi, peshvosi») yoki «Amir ul-umu'miniyn fil-hadiys» («Hadis ilmi bo'yicha mo'minlar amiri») va nasablari Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohiym ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdur. Imom al-Buxoriyning otalari Ismoil o'sha davr etuk muhaddislaridan, Imom Molikning shogirdi va ashoblaridan biri edilar. Ul kishi tijorat ishlari bilan ham shug'ullanganlar. Manba'larda zikr qilinishicha, Ismoil o'ta taqvodor, xudojo'y, halol inson bo'lganlar. Imom al-Buxoriyning onalari ham otalari kabi taqvodor, diyonatli hamda karomat sohibasi bo'lganlar. Ul muhtarama Oллоh taologa qilgan betinim iltijo-yu duolari tufayli ulkan baxtga sazovor bo'lgan edilar. Chunki, Imom al-Buxoriy go'dakliklarida ko'zlari ojiz bo'lib qolgan bo'lib, tabiblar harchand urinmasin, davolay olmagandi. Kunlardan bir kuni Imom al-Buxoriyning onalari tushlarida Ibrohim alayhissalomni ko'radilar. SHunda ul zoti sharif mushfiqa onaga qarab: «Ey volida! Sening ko'pdan-ko'p duolaring tufayli Oллоh taolo o'g'lingning ko'zlariga qayta nur ato etdi»—deb xitob qiladilar. Imom al-Buxoriyning onalari shu haqda o'zlari bunday degan ekanlar: «O'sha tush ko'rgan tunda uyg'onib qarasam, darhaqiqat o'g'ilcham Muhammadning ko'zlari tuzalib, qayta nur kasb etibdi». Afsuski, biz Imom al-Buxoriyning yoshlikda ko'zlari ojiz bo'lib qolgani va buning sabablari xususida batafsil ma'lumotga ega emasmiz. Bizga ma'lum bo'lgani shuki, Imom al-Buxoriy butunlay shifo topib, ko'zlari asl holiga keladi va «At-Ta'rix al-kabiyr» nomli asarlarini oydin kechalarda yozadilar.

Imom al-Buxoriy qadimdan ilm-fan va madaniyat ravnaq topgan Buxoro shahrida 194 hijriy sana, shavvol (Iyd ul-fitr) oyining 13 kunida, salotul-jum'adan keyin, ya'ni 810 melodiy sana, 21 iyulda dunyoga kelganlar. Buyuk shoir va

¹⁰ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.62.

mutafakkir Abdurahmon Jomiy shu xususda: «Batho va Yasrib (Madina)da zarb qilingan tanganing sayqali Buxoroda kamoliga etdi»—deb yozgan edi.

Imom al-Buxoriy yoshlikdayoq otadan etim qolib, onalari qo‘lida tarbiyalana boshlaydilar. Birmuncha ulg‘ayib, xat-savodlari chiqqach, qalblarida islomiy ilmlarga, ayniqsa, Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislarini yod olib, ularni o‘rganishga ishtiyoq kuchaya boradi va dastavval Ibn al-Muborak hamda Vakiy‘ning hadis asarlarini yod oladilar.

Imom al-Buxoriyning kotiblari va asosiy tasniflari — «Al-Jomi‘ as-sahih»ning roviylaridan biri Abu Ja‘far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq bunday deb yozadilar: «Men Imom al-Buxoriyning «Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang‘ich maktab (kuttob)da o‘qiyotganimda kelgan edi» deb aytganlarini eshitib: «O‘shanda necha yoshda edingiz?»—dedim. SHunda ul kishi: «O‘n yoshda, balkim undan ham kichik edim»—deb javob qildilar»¹¹.

Imom al-Buxoriyning ustozlari xususiga kelsak, dastlabkisi otalari Ismoil, so‘ng o‘sha paytda Buxoroning taniqli muhaddislaridan biri hisoblangan alloma Ad-Doxiliy bo‘lganlar. Ad-Doxiliy hadis ilmini o‘rgatish bo‘yicha to‘garak (halqa) tashkil qilgan bo‘lib, uning shuhrati keng tarqalgan edi. Kunlardan bir kuni Ad-Doxiliy odatdagicha talabalarga hadis ilmidan dars berib turgan bo‘lib, Al-Buxoriy ham boshqalar qatori tinglab o‘ltirgan edilar. SHunda Ad-Doxiliy bir hadis isnodi haqida gapirayotib: «Sufyon Abu Zubayrdan, u esa Ibrohimdan (olgan, eshitgan)»—deb zikr qildilar. Shunda Al-Buxoriy: «Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilmaganlar»,—dedilar va bu bilan Ad-Doxiliyni mazkur hadis isnodi xususidagi xatodan ogoh qilmoqchi bo‘ldilar. Bu ovozni eshitgan Ad-Doxiliy hayratlanib dag‘allik bilan ul kishining so‘zlarini bo‘ldilar. Ammo Al-Buxoriy o‘ta muloyimlik bilan: «Ustoz, agar ishonmasangiz, asl manba‘ga bir qarang!»—dedilar. Ad-Doxiliy ichkariga kirib manba‘ga qaragach, Al-Buxoriyning gaplari to‘g‘riligini e‘tirof qilsalarda, o‘sha hadis sanadini o‘zlari tuzatmay, bu gomushni, insof yuzasidanmi yoki «Shogirdim o‘zi topgan xatoni o‘zi tuzatsin» degan ixtiyor bilanmi, Al-Buxoriyga qoldirdilar. Ichkaridan

¹¹ Imom Buxoriy ta'rifi. –T.: Cho‘lpon, 1996. –B.22.

chiqqach esa: «E bola, buni ne deb tuzatish lozim?» — dedilar. Al-Buxoriy darhol: «Az-Zubayr va Ibn Adiy bir shaxs bo‘lib, ul kishi Ibrohimdan rivoyat qilganlar»,— dedilar. Shundan keyingina Ad-Doxiliy qo‘llariga qalam olib, avval xato yozuvni tuzatdilar, so‘ng: «Sen haqsan»,—dedilar. Al-Buxoriy, o‘zlarining aytishlaricha, bu vaqtda atigi o‘n bir yoshda bo‘lganlar. Manba’larda keltirilishicha, Al-Buxoriy qalblarida hadis yod olish ishtiyoqi o‘n yoshdan boshlanib, vaqt o‘tgan sari tobora kuchayib, ziyoda bo‘lib borgan. Imom al-Buxoriy yoshlik chog‘laridan hadislarni yod olish bilan birga, ularning sahih (to‘g‘ri) va g‘ayri sahih (noto‘g‘ri)larini ajratish, ulardagi xatolarni aniqlab to‘g‘rilash, hadis roviylari ahvolini, ya’ni ularning adolatli yo adolatsiz, halol yoki egriligini, ishonchli yoki ishonchsizligini, turish-turmushlarini, uy-joylarini, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari va aloqalarini o‘rganish hamda turli hadislar isnodini solishtirib ko‘rish, ularning bir-biriga bog‘liq yoki bog‘liq emasligini aniqlash, hadis ilmi borasida eng yuqori darajaga etishish, uning turli masalalarini jamlab va chuqur tahqiq etib, Qur’oni Karim oyatlari yordamida to‘g‘ri yo noto‘g‘ri ekanligini isbotlash bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Imom al-Buxoriy bu masala bilan yoshlik chog‘laridan alohida ishtiyoq va mehr bilan shug‘ullanganlar. Bu olijanob solih amalni ruyobga chiqarmoq qasdi ul kishining fikru zikrini tobora qattiqroq chulg‘ab, dillaridan tobora mustahkam o‘rin ola borgan. Imom al-Buxoriyning o‘z vatanlarida va xorijiy yurtlarda mingdan ortiq ustoz (shayx, mashoyix)lardan hadis rivoyat qilganlari haqida manba’larda aniq ko‘rsatilgan. Imom al-Buxoriyga hadis ilmidan ta’lim bergan dastlabki ustozlardan yana Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Ibrohim ibn al-Ash’as va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Imom al-Buxoriy o‘n olti yoshga etar-etmas ko‘pdan-ko‘p hadislarni o‘zlashtirib, Abdulloh ibn al-Muborakning hadis kitoblarini yod oldilar. Ul kishining bu noyob qobiliyatlari ko‘pchilik ulamolar tomonidan, shuningdek ul kishiga ustozlik qilgan etuk muhaddislar tomonidan ham yuksak baholandi. Bu hol shu darajaga etdiki, hatto taniqli olimlar ham o‘z darslarida Imom al-Buxoriyning hozir bo‘lishlaridan hamda ul kishining huzurida hadis va hadis ilmi borasida biror

xato yoki kamchilikka yo‘l qo‘yishlaridan xavotirlanadigan bo‘lib qoldilar. Ular hatto o‘z kitoblaridagi xatolarni tuzatish uchun Al-Buxoriyga murojaat qilardilar.

Muhaddislar orasida arabcha «rihlat» istilohi biror kishining hadis talabida yoki uning roviylari silsilasini nihoyasiga etkazish maqsadida safar qilishini anglatadi. Rihlatga niyat qilgan hadis tolibining o‘z yurtidagi barcha roviylardan ular bilgan hadislarini birorta ham qoldirmay yozib olishi shart bo‘lgan. U ana shu shartlarni bajargandagina o‘zga yurtlarga rihlat qilgan.

Imom al-Buxoriy hadis talabida rihlatga niyat qilgan davrga nazar solsak, bu paytda Islom olami benihoyat kengaygan bo‘lib, Islom bayrog‘i ostiga o‘tgan elu yurtlarning adadi juda ko‘paygan edi¹². Bunga qadar Janob Rasulullohning sahobalari, ulardan so‘ng tobe’inlar va atbo’ ut-tobe’inlar uzoq-uzoqlardagi turli mamlakatlarga tarqab ketgandilar. Ular Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislarini o‘zlari borgan turli mamlakat va shaharlarda ommaga yoyar erdilar. Shubhasiz, ikki Haram (Makkai Mukarrama va Madinai Munavvara) mamlakati ilmi Islom, jumladan hadis ilmi borasida alohida mavqega ega. Chunki bu mamlakat Islom dinining asl markazi va vahiy nozil bo‘lgan tabarruk zamindur. Shunday bo‘lsada, ko‘p sahoba va tobe’inlar o‘zga yurtlarga borib, ul erlarda yashab qolgan edilar. Suyagi qotmagan davridan Islom ilmiga muhabbat qo‘yib, uning visoli orzusida ulg‘aygan kishi maqsadiga etmog‘i uchun o‘zini behad uzoq muddatli rihlatga (safarga) hozirlamog‘i lozim bo‘lgan. SHubhasizki, bunday ezgu amalni ado etmoq uchun iroda, baland himmat va sabr-toqat darkordur. Olloh taolo Imom al-Buxoriyga mazkur barcha xislatu fazilatlarini to‘la-to‘kis ato qilgan edi. Mana shunday xislatu fazilatlarga ega bo‘lgan inson Islom ilmiga etishmoq yo‘lida ochligu tashnalikdan qiynalsa ham, ot-ulovidan ajrab cho‘lu sahrolarda piyoda yuraverganidan tovonlari yorilib-yorilib ketsa ham, begona yurtlarda turli mashaqqatlardan nochor ahvolga, kelib qolsa ham, emishi faqat sabzavot, meva va daraxt barglaridan iborat bo‘lsa ham, qalb aro ilmga bo‘lgan muhabbati hech qachon so‘nmaydi. Aksincha, u ilm yo‘lida boshiga tushgan har qanday mashaqqatlardan rohatlanadi, zavqlanadi, bor mol-dunyosini shu yo‘lda

¹² Imom Buxoriy ta'rifi. –T.: Cho‘lpon, 1996. –B.22.

sarflashdan, hatto jonini ham fido qilishdan qaytmaydi. Aynan ana shu xislatu fazilatlar tufayli Imom al-Buxoriy o‘zlaridan oldin o‘tgan buyuk imomu allomalar darajasiga ko‘tarildilar. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning: «Biz (musulmonlar bu dunyoga kelib-ketish jihatidan) oxirgilarmiz. (Ammo) barcha ummatlarga bizdan avval va bizga ulardan keyin Kitob berilganiga qaramay, Qiyomat kuni (hisob-kitob va jannatga kirish borasida biz hammadan) oldindamiz...» — degan hadisi shariflari bu fikrimizni tasdiqlaydi. Alloma Qutayba ibn Sa‘id as-Saqafiy: «Imom al-Buxoriy sahobalardan bo‘lganlarida, Oллоh taoloning bir mo‘‘jizasi bo‘lgan bo‘lur edi»,—deydilar. Lekin, umuman olganda, Imom al-Buxoriy, hatto tobe‘inlardan bo‘lganlarida ham, Oллоh taoloning bir mo‘‘jizasi bo‘lgan bo‘laverardi. Ilm-fan yo‘lida o‘ta fidoiy ekanliklari hamda g‘oyat o‘tkir aql-zakovat, baland himmat va ahl bovar qilmaydigan darajada kuchli quvvai hofiza sohibi ekanliklari Imom al-Buxoriyga misli ko‘rilmagan shonu sharaf keltirib, ul kishini buyuk allomalar safiga kiritdi. Shu boisdan ham Imom al-Buxoriyning Imom Molik va Imom Abu Hanifaning ustozlaridan bo‘lmish ko‘plab allomalardan hadislar rivoyat qilganlarini ko‘ramiz. Imom al-Buxoriy o‘n olti yoshga etguncha o‘z yurtlaridagi mashoyixlardan hadis eshitib, ulardan saboq oladilar. Mana shundan keyingina islomiy ilmlar manbai, Payg‘ambar alayhissalomning vatanlari, Qur‘oni Karim nozil bo‘lgan va Hazrat Jabroil tushgan muqaddas diyori, Janob Rasulullohning sahobalari maskani, Islom dinining markazi Hijoz shari‘at tomon ravona bo‘ladilar. Imom al-Buxoriyning kotiblari Ibn Abu Hotam al-Varroq zikr qilishlaricha, Imom al-Buxoriy: «O‘n olti yoshga etganimda Ibn al-Muborak va Vakiy‘ning kitoblarini yod olib, anavilarning gaplarini bilib oldim. So‘ng validam va akam bilan hajga jo‘nadim»—deganlar. Ul kishi «anavilar» deb Xuroson va Isfahonning ba‘zi hadisshunoslarini nazarda tutganlar. Ularning nomlarini tilga olgilari kelmaganining boisi shuki, ular hadis. ilmi borasida o‘zbilarmonlik qilganlaridan ilmiy xadisshunoslikka zarar etkazganlar, g‘ayri sahih hadislarining tarqalishiga sababchi bo‘lganlar). Al-Varroqning bu rivoyatlaridan ma‘lum bo‘ladiki, Imom al-Buxoriy birinchi marta 825 (hijriy 210) yilda safarga chiqqanlar, hadis bo‘yicha saboqlarini esa bundan besh-olti yil

muqaddam ola boshlaganlar. Mana shu qisqa muddat ichida ul kishi hadis ilmi borasida erishgan yutuqlari, qobiliyatu iqtidorlari, quvvai hofizalari, bilimga chanqoqliklari bilan yurtdoshlarini hayratga soldilar, hatto kamolot ahli nazdida ishonch va tayanch timsoliga aylandilarkim, bu martabaga buyuk allomalar ham butun umri davomida erisha olmagan.

Shunday qilib, Imom al-Buxoriy 825 yili onalari va birodarlari bilan birgalikda Makkai Mukarramaga etib kelib, haj ibodatini ado etgach, onalari va birodarlarini ona yurtlariga qaytarib yubordilar. So‘ng, o‘zlari Makkada qolib, shahar mashoyixlarining ilmiy yng‘inlarida qatnasha boshladilar. O‘sha paytda Makkada bir qancha ko‘zga ko‘ringan ulamolar bo‘lib, hadis ilmi sohasida katta obro‘-e‘tibor qozonganlaridan Imom Abul-Valiyd Ahmad ibn al-Arzaqiy, Abdulloh ibn YAzid, Ismoil ibn Solim as-Soig‘, Abu Bakr Abdulloh ibn az-Zubayr va alloma al-Hamidiylarni ko‘rsatish mumkin. Makkai Mukarramada boshqa bir necha olimlar xam bor ediki, Imom al-Buxoriy ulardan ham hadis ilmi bo‘yicha saboq oldilar. Imom al-Buxoriy ul erda bir qancha muddat yashaganlaridan keyin Madinai Munavvaraga yo‘l oldilar¹³. Bu erga jahonning har tarafidan ilmi nabaviyni o‘rganmoq uchun ilm toliblari oqib kelardilar. Imom al-Buxoriy 827 yilda, ya‘ni o‘n sakkiz yoshlarida Payg‘ambar alayhissalomning ravzai muboraklari qo‘yilgan muqaddas shahar — Madinai Munavvaraga kirib keldilar. SHu paytda Madinai Munavvarada Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza, Abu Sobit. Muhammad ibn Ubaydulloh, Abdulaziz ibn Abdulloh al-Uvaysiy kabi ko‘plab mashhur ulamolar mavjud edilar. Imom al-Buxoriy ushbu ulamolar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan ham hadislar bo‘yicha foydali saboqlar oldilar, Imom al-Buxoriy Hijozi sharifga qilgan bu rihlatlari davomida kechalari oy yorug‘ida o‘ltirib «At-Ta’rix al-kabiyr» («Katta tarix») nomli kitoblarining qoralama nusxasini yozib tugatdilar. Qator tarixchilarning ta’kidlashicha, Imom al-Buxoriyning Hijozga (Makka, Madina, Toif, Jiddaga) qilgan bu rihlatlari olti yil davom etgan, Ammo, shu muddat davomida ul kishi bo‘lak erlarga ham borib kelib turganlar.

¹³ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. –B. 300.

Keyin, Imom al-Buxoriy Basra (Iroqda) shahriga yo‘l oladilar. Shu paytda Basra ham Sharqning e‘tiborli ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda ilm-ma‘rifat, ayniqsa ilmi hadis taraqqiy etgan edi. Basrada ul kishi Imom Abu Osim an-Nabiyl, Safvon ibn Iso, Badal ibn al-Muhbir, Hurmiy ibn al-Ammora, Affon ibn Muslim, Muhammad ibn Ar‘ara, Sulaymon ibn Harb, Abul-Valiyd at-Tayolisiy, Orim va Muhammad ibn Sinon kabi ulamolardan hadis o‘rganadilar. SHu asnoda Imom al-Buxoriy Basraga hammasi bo‘lib to‘rt marta borib keldilar. Bul haqda o‘zlari: «Basraga to‘rt marta rihlat qilganman»—der edilar. SHundan so‘ng, ul kishi Kufaga safar qildilar. Bu erga ham ul kishi bir necha bor kelib ketdilar. Shuningdek, Bag‘dodga ham rixlat qildilar. Kotiblari Al-Varroq ul kishining Kufa va Bag‘dodga qilgan safarlari xususida so‘zlab: «Imom al-Buxoriy: «Kufa va Bag‘dodga necha marta borganimning hisobiga etolmayman»—der edilar»,—deydilar. Tarixchi olim An-Navaviy «Tah-ziyb ul-asmo’ vallug‘ot» nomli kitoblarida Imom al-Buxoriyning Kufadagi ustoz (shuyux)laridan quyidagilarni zikr qilganlar: Abdulloh ibn Muso, Abu Na‘iym Axmad ibn YA‘qub, Ismoil ibn Abon, Al-Hasan ibn Rabiyl, Xolid ibn Muxallad, Sa‘iyd ibn Hafs, Talq ibn G‘unom, Umar ibn Hafs, Urva, Qabiysa ibn Uqba va Abu G‘asson. Bular Kufaning taniqli olimlari bo‘lib, Imom al-Buxoriy ishonch hosil qilgach, ulardan hadislar yozib olib rivoyat qilganlar. O‘sha paytda Bag‘dod Abbosiylar xalifaligining poytaxti bo‘lib, unda Islom olamining turli tomonlarida ko‘plab fozilu olimlar to‘plangan, edi. SHu boisdan bo‘lsa kerak, Imom al-Buxoriy yuqorida aytib o‘tganimizdek, Bag‘dodda bir necha marta bo‘lganlar. Ul kishi bu erda Imom Ahmad ibn Hanbal, Muhammad ibn Iso as-Sabbog‘, Muhammad ibn Soiq, SHurayh ibn an-Nu‘mon va boshqalardan hadislar yozib olganlar. Imom Abu Ali al-G‘assoniy «Taqiyd al-muhmal» nomli asarlarida bunday deganlar: «Imom al-Buxoriy so‘nggi marta Bag‘dodga kelib qaytayotganlarida (bu sakkizinchi kelib ketishlari edi) Imom Axmad ibn Hanbal bilan xayrlashgani huzurlariga bordilar. SHunda Imom Ahmad ibn Hanbal Imom al-Buxoriyga hasratu alam bilan: «Ilm va muxlislarni tashlab Xurosonga ketasizmi?»— deb zorlangan edilar. Buxoro hokimi Abu Tohir Imom al-Buxoriyni ona yurtlari Buxorodan badarg‘a qilish maqsadida

ul kishiga nisbatan turli-tuman bo‘htonu tuhmatlar yog‘dirganda. Imom al-Buxoriy Ahmad ibn Hanbalning o‘sha so‘zlarini eslab: «Ahmad ibn Hanbalning so‘zlarining ma’nosiga endi tushundim»—deb ko‘p afsuslangandilar».

Imom al-Buxoriy Shomda ham bo‘lib, unda Yusuf al-Faryobiy, Abu Nasr Ishoq ibn Ibrohim, Odam ibn Abu Iyos, Abul-Yamon al-Hakam ibn Nofi’ va Hayva ibn Shurayh kabi o‘sha davrning bir qancha mashhur olimlaridan saboq oldilar. Shundan so‘ng, ul kishi Misrga o‘tib, Usmon ibn as-Soig‘, Sa’iyd ibn Abu Maryam, Abdulloh ibn Solih, Ahmad ibn Solih, Ahmad ibn Shubayb, Asbag‘ ibn al-Faraj, Sa’iyd ibn Abu Iso, Sa’iyd ibn Qasiyr ibn Afiyr, Yahyo ibn Abdulloh ibn Bakir kabi olimlardan ilmi hadis bo‘yicha dars oldilar. Ba’zi manba’larda ko‘rsatilishicha, Imom al-Buxoriy Al-Jazira (Mesopotamiya)ning Bag‘doddan bo‘lak erlariga ham borib, Ahmad ibn Abul-Malik ar-Harroniy, Ahmad ibn YAzid al-Harroniy, Amr ibn al-Xalaf, Ismoil ibn Abdulloh ar-Riqqiy kabi olimlar bilan muloqotda bo‘ladilar va ulardan ham ilmi hadis bo‘yicha saboq oladilar. Bundan tashqari, Imom al-Buxoriy Xuroson va uning Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibolu Xuroson kabi erlarida ham necha martalab bo‘lib, u erlik olimlardan hadis yozib oladilar. Chunonchi, Marvda Ali ibn Hasan ibn Shaqiyq, Abdon, Muhammad ibn Muqotil va boshqalardan, Balxda Makkiy ibn Ibrohim, Yahyo ibn Bushr, Muhammad ibn Abon, Hasan ibn Shujo’, Yahyo ibn Muso, Qutaybadai, Hirotida Ahmad ibn Abul-Valiyd al-Hanafiydan, Nishopurda YAhyo ibn YAhyo, Bushr ibn al-Hakam, Ishoq ibn Rohvayx, Muhammad ibn Rofi’dan, Rayda Ibrohim ibn Musodan, Vositda Hasson ibn Hasson, Hasson ibn Abdulloh, Sa’iyd ibn Abdulloh kabi olimlardan hadis yozib oladilar. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy o‘zining «Zafarnoma» nomli mashhur asarida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning Keshda ham ancha muddat istiqomat qilganlari haqida yozadi. Yuqorida zikr qilingan shahar va mamlakatlarga Imom al-Buxoriy yakkayu-yagona maqsad — hadis ilmidan saboq olish niyatida borib, ulardagi taniqli olimlar bilan muloqotda bo‘ldilar, o‘z bilimlarini betinim boyitishga intildilar. Ad-Xatiyb al-Bag‘dodiy «Bag‘dod tarixi» nomli kitobida bunday deb yozadi: «Muhaddis Ja’far ibn Muhammad al-Qattonning aytishicha, Imom al-Buxoriy:

«Men hadislarni ming, ehtimol undan ham ortiq ulamo shayxlarga tayanib ezdim, mening kitobimda isnodi ko‘rsatilmagan birorta ham hadis yo‘q»—deb aytgan ekanlar»¹⁴.

Tarixchilar Imom al-Buxoriy ustozlarining soni, haqida ham ma’lumotlar keltirganlar. CHunonchi, olim Muhammad ibn Abu Hotamning yozishicha, Imom al-Buxoriy o‘zaro suhbatlardan birida unga: «Bir ming saksonta ulamo shayxdan olib yozganman»—deb aytgan ekanlar. X asrda yashagan isfahonlik olim Muhammad ibn Ishoq ibn Manda al-Isfahoniy Imom al-Buxoriyning ustozlari haqida maxsus asar («Asomiya mashoyix») yaratib, ularni alifbo tartibida nommanom keltiradi. Hozirgi vaqtda Saudiya Arabistonida istiqomat qiluvchi vatandoshimiz, iqtidorli olim Nazar Muhammad al-Faryobiy tahqiq qilib, keng ko‘lamda ilmiy muomalaga kiritgan ushbu mo‘‘jazgina risola 1991 yili Saudiya Arabistonidagi «Maktabat al-Kavsar» nomli matbaada chop etilgan. Ushbu kitobda «Sahiyh al-Buxoriy»da keltirilgan mingdan ortiq hadis roviylaridan 306 tasining ismi sharifi, ularning asli qaysi shahardan kelib chiqqanligi, laqabi yoki kunyasi va aksariyatining qaysi shaharda va qachon vafot etganligi haqida aniq ma’lumotlar keltirilgan.

Har bir fan sohasining o‘ziga xos istilohlari bo‘lgani kabi hadis ilmining ham o‘z istilohlari mavjuddir. Ulardan biri «illat» istilohi bo‘lib, muhaddislar uning mazmunini quyidagicha tushuntiradilar: Illat—biror hadis isnodi yoxud matnidagi darhol fahmlab bo‘lmaydigan noaniqlik va mavhumliklar bo‘lib, ular hadis qadriga putur etkazadi, uning haq-qoniyligiga, to‘g‘ri deb qabul qilinishiga mone’lik qiladi. Hadislardagi illatlarni topib, ularni isbotlash va to‘g‘rilash hadis ilmida o‘ta nozik, o‘ta mas’uliyatli va eng mushkil izlanishdardan sanalib, muhaddisning bu boradagi jamiki uslubi yo‘l-yo‘riqlarni mukammal bilmog‘ini, bundan tashqari roviylarning tug‘ilgan, vafot qilgan vaqt va joylarini hamda ularning aslida hadisni kimdan eshitib, qanday so‘z va iboralar bilan rivoyat qilganlarini aniqlamoq mahoratiga ega bo‘lmog‘ini taqozo qiladi. Shu boisdan ham muhaddislar: «Bu shartlarni to‘la-to‘kis ado etmoqlik hadis ilmida eng muammoli, ayni vaqtda o‘ta sharafli va

¹⁴ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O‘zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.17.

mas'uliyatli yumushdir. Imom al-Buxoriy hadis ilmi sohasida mukammal egallagan san'atlardan biri esa aynan ana shu illatli hadislarni aniqlash san'ati edi. Bu haqda muhaddis Al-Hofiz Ahmad ibn Hamdun: «Men Imom al-Buxoriyni Usmon ibn Abu Sa'iyd ibn Marvonning janozasida uchratdim. SHunda Muhammad ibn YAhyo az-Zuhliy Imom al-Buxoriydan roviylar ismlari va illatli hadislar xususida so'rab edilar, ul kishi kamon o'qidek tez, «Qul huvallahu ahad»ni yoddan sharillatib tilovat qilgandek ravon javob qildilar»—deydilar¹⁵. Mana shu davrda, ya'ni IX asrda Nishopurda ilm-fan, ayniqsa hadis ilmi nihoyatda taraqqiy qilgan edi. Buyuk muhaddislar Imom al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Imom at-Termiziy va boshqa bir qancha allomalar u erdagi madrasalarda hadis ilmidan dars berardilar. Muhaddislar orasida ilmiy munozara va bahslar bo'lib turar edi. Imom al-Buxoriy hadis ilmi bo'yicha o'z bilim va salohiyatlari, xususan illatli hadislarni aniqlash mahoratlari bilan barchani qoyil qoldirgan edilar. O'z davrining mashhur muhaddislaridan biri, Imom al-Buxoriyning shogirdlari Muslim ibn al-Hajjoj Imom al-Buxoriyga o'z samimiy munosabatlarini bildirib, «Sizni faqat hasadgo'ylargina ko'ra olmaydi. Mening iymonim komilki, sizdek buyuk olim butun olamda yo'q»—deb aytganlar. Imom al-Buxoriyning illatli hadislarni aniqlashdagi mahoratlari haqida ul kishiga zamondosh ko'pgina olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Imom at-Termiziy illatli hadislar xususidagi «Kitob al-ilal» nomli asarlarida: «Hadislar, roviylar, va ularning tarixlaridagi illatlar xususidagi fikrlarimni Imom al-Buxoriyning «Kitob at-Ta'rix» nomli asarlaridan olganman. Shuningdek, Abdulloh ibn Abdurrahmon va Abu Zur'adan ham foydalandim, lekin Muhammad al-Buxoriydan foydalanganimchalik ko'p emas»,—deydilar. Imom at-Termiziy bul haqda yana: «Illatli hadis va isnodlarni aniqlash borasida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan ko'ra ustun birorta ham olimni ko'rmadim»— deb ta'kidlaydilar.

Imom al-Buxoriy ishtirok etgan ilmiy majlislarning birida o'z zamonasining etuk olimlaridan sanalgan Al-Faryobiy sanadi quyidagicha bo'lgan bir hadis haqida gapirib: «Sufyon Abu Urvadan, u Abul-Xattobdan, u Abu Hamzadan rivoyat

¹⁵ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.19.

qilgan»,—dedilar. Majlisda hozir boʻlganlarning birortasi ham Sufyondam boshqalarning kim ekanligini aniq bilmasdi, chunki mazkur hadis sanadida ularning ismlari oʻrniga faqat kunyalari keltirilgan edi. Shunda Muhammad al-Buxoriy, vazminlik bilan: «Abu Urva — bu Muammar ibn Roshid, Abul-Xattob — Qatoda ibn Daoma, Abu Hamza boʻlsa, Anas ibn Molikdir. Ular faoliyatlari inqilobiy boʻlgani uchun ham, faqat kunyalari bilan atalganlar»¹⁶—dedilar. Roviylarni xato qilganlikda ayblash yoki ular aytgan hadislarning toʻgʻriligiga ishonch hosil qilish masalalari sahobalar davridayoq yuzaga kelgan boʻlib, oʻsha paytda hadislarni yozib olishda bunga eʼtibor berila boshlagan edi. Chunki hatto baʼzi sahobalar rivoyat qilgan hadislar orasida ham illatli hadislar uchragan hollar aniqlangan edi. Shunday boʻlsada, Paygʻambar alayhissalomning vafotlariga hali koʻp vaqt boʻlmaganligi hamda hadislarni ommaga yoyish vositalarining kamligi boisidan dastlab bunga unchalik qattiq kirishilmadi. Lekin hadislarni ommaga tarqatish vositalari koʻpayib, hadis aytishga havasmandlar paydo boʻlgach, yirik muhaddislar bu masalaga jiddiy kirishdilar. Nihoyat, qaysi hollarda Janob Rasulullohning zamondoshlarini hadis rivoyatida xato qilganlikda ayblamoq mumkin-u, qaysi hollarda mumkin emasligi haqida qonun-qoidalar joriy etildi. Roviylarni faqat oʻta zarur hollardagina, shunda ham odob-axloq doirasidan zarracha chiqmay, xato qilganlikda ayblamoq joiz, deb topildi. Xullas, roviylar xatosini aniqlovchi muhaddis oʻz ishiga yuksak diyonat va ehtiyotkorlik bilan yondoshmogʻi zarur edi. Imom al-Buxoriy ham bu borada oʻzlariga yuksak diyonat, taqvo va oʻta ehtiyotkorlikni dasturulamal qilib olgan edilar. Ul kishi hadisda xatoga yoʻl qoʻygan roviy haqida «Uni tark etishgan», «Oʻni odamlar inkor etishgan». «Tark etilgan», «Tushirib qoldirilgan», «Uning xususida boʻlak fikr bor», «Uning xususida indashmagan» kabi beozor soʻzlarni ishlatar edilar. Imom al-Buxoriy kamdan-kam hollarda biror raviyga nisbatan «U ichidan oʻylab topgan (uydirmachi)» yoki Qazzob (yolgʻonchi)» der edilar. Ul kishi aytgan eng qattiq ayblov «Munkir ul-hadis» («Hadisni inkor qiluvchi») degan ibora boʻlard.

¹⁶ Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli toʻplam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999.

Hadis ilmida shunday qoida odat tusiga kirdiki, agar Imom al-Buxoriy biror roviy haqida «U munkir ul-hadis» desalar bas, undan hech vaqt hadis rivoyat qilinmasdi. SHu xususda Ibn al-Qatton: «Imom al-Buxoriy: «Kimning xususida «Munkir ul-hadis» degan bo'lsam, undan hech vaqt hadis rivoyat qilinmasin»—deb aytganlar»,—deydilar¹⁷.

Imom al-Buxoriyning ko'p sonli ustozlaridan birining ismi «Musaddid» («To'g'ri yo'lga boshlovchi») edi. Imom al-Buxoriy ul kishiga qattiq ishonganlaridan: «Musaddid ismi jismiga monand kishidurlar. Kitoblarim o'zimda bo'ladimi yoki ul kishida bo'ladimi, menga farqi yo'q»—deb doimo takrorlar edilar. Bundan ayonki, Imom al-Buxoriy o'z kitoblarining muhofazasiga alohida e'tibor berganlar, bu masalaga bamisoli hadis rivoyatiga e'tibor bergandek e'tibor bilan qaraganlar. Shuningdek, ular qanday odamlarning qo'lida saqlanishiga ham jiddiy qaraganlar. Imom al-Buxoriy umr bo'yi Oллоh taoloning bandalariga ilmiy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham naf' etkazmoqni o'zlariga eng oliy maqsad qilib qo'ygan edilar. Imom al-Buxoriyning otalari Ismoil o'z zamonlarining yirik muhaddislaridan bo'lish bilan birga, katta savdogar ham edilar. Ul kishidan Imom al-Buxoriyga kattagina boylik meros qolgan edi. Imom al-Buxoriy tijoratdan ko'rayotgan daromaddan besh yuz dirhamini faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflardilar. Tolibi ilmlarga ma'lum mablag'lar (maoshlar) ajratib, ularni Payg'ambar alayhissalomning hadisi shariflarini o'rganishga rag'batlantirar, ahli ilmga, ustozu muhaddislarga g'oyatda ko'p ehson ko'rsatardilar. Ayni vaqtda Imom al-Buxoriy o'z shaxsiy hayotlarida eyish-ichish va kiyinishda sira xay ortiqcha dabdaba va behuda sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymasdilar, sabr-toqat, qanoat chidamlilik ul kishi uchun odatiy bir hol edi.

Imom al-Buxoriy g'oyatda beg'ubor, halol-pokiza, diyonatli, taqvodor inson bo'lib, g'iybatu nohaqliklardan uzoq edilar, doimo: «G'iybat harom ekanini bilganimdan beri hech qachon biror kishi haqida g'iybat qilmaganman»—deb ta'kidlardilar. Imom al-Buxoriyning eng ulug' fazilatlaridan yana biri — taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko'rinishlaridan uzoq ekanliklaridir. Ul kishining

¹⁷ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.20.

«Sahih al-Buxoriy» («Al-Jami' as-sahih») nomli hadis to'plamlari bilan chuqur tanishgan kishi bunga amin bo'ladi. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to'plangan hadislarining sahihligiga to'la ishonch hosil qilgachgina ularni kitobga kiritganlari bu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriyning hadislar to'plami haqida shuni ham qayd qilish kerakki, isnodida ahli sunnaga mansub bo'lmagan roviylar ham uchraydi. Imom al-Buxoriy ular bilan garchand tariqat masalasida muxolafatda bo'lsalarda, ularning rivoyatlarini tashlab ketmay, kitoblariga kiritganlar. Lekin, bu erda shuni aytish lozimki, bunday e'tiqodiy murosasozlikning boisi—hadis rivoyatiga nisbatan mutlaq shubhaga o'rin qoldirmaslik edi. Shul boisdan muhaddislar ahl ul-havo (shiy'alar, xorijiyalar, mu'taziliylar va boshqalar)ga mansub roviylar aytgan hadislarini ham qabul qilganlar, ammo ul roviylar bid'atga da'vat qilmaydigan, yolg'on-yashiq rivoyatlarni tarqatmaydigan, yolg'onni hatto xayoliga ham keltirmaydigan kishilar bo'lishi shart bo'lgan. SHuning uchun ham Imom al-Buxoriy ulardan ayrimlarining rivoyatini «Al-Jomi' as-sahih»ga kiritib, ba'zilarinikini kiritmaganlar¹⁸. Imom al-Buxoriy roviylarning hadislardagi xatolarini aytish bilan birga, ularning hayotdagi ezgu ishlari-yu, chin fazilatlarini, agar rost bo'lsa, hech bir kamsitmay, batafsil zikr qilganlar.

Imom al-Buxoriy yashagan davrlarida Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy Tohiriylarning Buxorodagi amiri edi. Xorijiy yurtlardagi safardan qaytib kelgan Imom al-Buxoriy o'z ona yurtlari Buxoroda joylashib, shonu shuhratlari turli tomonlarga tarqagach va ko'plab hadis toliblari to'da-to'da bo'lishib huzurlariga kela boshlagach, Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy ul kishini saroyiga chorlab, o'zi va o'g'illariga «Sahih al-Buxoriy» va «At-Ta'rix al-kabir» asarlaridan saboq berishni talab qildi. Shunda Imom al-Buxoriy uning vakiliga: «Men ilmni xor qilib, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman»—deb javob qiladilar. Shundan keyin amir: «Agar Imom al-Buxoriy saroyga kelishni xohlamasalar, o'zim va bolalarim uchun maxsus vaqt ajratib dars bersinlar, ammo ul vaqtda bo'lak odamlar bo'lmasin!»—

¹⁸ Yo'ldoshxo'jayev D., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik: ma'ruza matni. – T.: FTD KDI TAF bosmaxonasi, 2000. –B. 100.

deb yana vakilini yubordi. Lekin, Imom al-Buxoriy amirning bu talabiga ham rad javobini berib: «Ilm olmoqlik Payg‘ambarimiz alayhissalomning meroslaridur, bunga barcha xosu avom teng huquqlidur, agar amirning ilmga ehtiyoji bo‘lsa, uyimga yoki masjidga kelsin!»—dedilar. So‘ng: «Mobodo bu taklifim sizga ma’qul bo‘lmasa, ul holda siz hukmdorsiz, yaxshisi, ilmni o‘zgalardan yashirmaganim xususida Qiyomat kuni Olloh taolo qoshida menga bir dalil bo‘lmog‘i uchun talabalarga dars bermog‘imni man’ qilib qo‘ya qoling!»— deb vakil orqali amirga ma’lum qildilar. Mana shu qat’iy javobdan keyin Buxoro amiri qattiq g‘azablanib Imom al-Buxoriyni shahardan chiqarib yuborish yo‘llarini izlay boshladi. Lekin, Imom al-Buxoriy millionlab musulmonlarning qalbini o‘zlariga rom qilib, ularning cheksiz mehru muhabbatini qozongan zot ekanliklari boisidan amir ul kishini kuch birla Buxorodan chiqarib yubormoqqa botina olmadi. SHu bois u bir guruh beandisha, nopok va munofiq odamlardan foydalanib, Imom al-Buxoriyga nisbatan xaloyiqning g‘azabini qo‘zg‘aydigan yolg‘on-yashiq, tuhmat gaplarni tarqatdi. Shundan so‘ng, amir ul kishidan shahardan chiqib ketishni talab qildi.

Imom al-Buxoriy Buxorodan chiqib, Doykandga keldilar. Ammo, g‘animlar tarqatgan ig‘vo-yu bo‘htonlar bu erga ul kishining o‘zlaridan ancha ilgari etib kelgan bo‘lib, uning ahli bu xususda ikki guruhga bo‘lingan edi. Biri Imom al-Buxoriyni tuhmatu bo‘htonlardan himoya qildi, ikkinchisi esa fisqu fasodchilarni qo‘llab-quvvatladi. Imom al-Buxoriy Poykand ahli o‘rtasidagi mazkur ixtilofdan voqif bo‘lgach, bu erda yashashni o‘zlariga munosib ko‘rmadilar. Shunda samarqandliklar Imom al-Buxoriyni Samarqandga taklif etdilar va unda muqim istiqomat qilib mudarrislik qilmoqlarini so‘radilar. Imom al-Buxoriy shunga rozi bo‘lib Paykanddan chiqdilar, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘iga kelib, bir qarindoshlarining uyida to‘xtadilar. Lekin, Imom al-Buxoriy Buxoroda ko‘tarilgan fitnaning Samarqandga ham etib kelganidan va uning ahli ham poykandliklar kabi ikki guruhga bo‘linib, o‘zaro muxoliflik qilayotganidan xabardor bo‘lgach: «Ollohim, Er yuzi qanchalik keng bo‘lgani bilan, menga torlik qilib qoldi, endi meni o‘z rahmatingga olgil!»—deb Olloh taologa duo qildilar.

Shundan soʻng, ul kishi tez kunda betob boʻlib, hijriy 256 yilning Ramazon hayiti (Iyd al-fitr) kechasi (870 yil, 31 avgust) 62 yoshda vafot etdilar.

Imom al-Buxoriy haqlarida yozgan muarrix va biograflar ul kishining husni xulqlari va mahosinlarini zikr qilganlarida, albatta, quvvai hofizalari va xotiralarining oʻta kuchli boʻlganini alohida qayd qilishadi. Chunonchi, Imom al-Buxoriyning xotiralari kuchli boʻlganligi xususida koʻpdan-koʻp rivoyatlar mavjud boʻlib, ul kishining bolalik davrlaridayoq Oллоh taolo ato etgan noyob iqtidoru quvvai hofizalarini sezgan ustozlarining «Bu gʻoyatda fozil inson boʻladi, dovrugʻi elga doston zot boʻlib etishadi» degan bashoratlari tarix kitoblarida bitilgan. Buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy: «Imom al-Buxoriy el orasida tanila boshlagach, Abdulloh ibn Munir: «Ey Abu Abdulloh, Oллоh taolo sizni bu ummatning ziynati qilib yaratgan!»—degan edi»,—deydilar. At-Termiziy yana: «Oллоh taolo ul kishining barcha xohishlarini mustajob qilib yaratgan edi»—deb taʼkidlaydilar. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiy quyidagicha hikoya qiladilar: «Xoshid ibn Ismoil bunday degan edi: «Imom al-Buxoriy biz bilan Basra mashoyixlari huzuriga qatnar edilar. Oʻsha paytda ul kishi oʻspirin boʻlib, hadislarni yozib olmas edilar. SHu zaylda oʻn olti kun oʻtgach, Imom al-Buxoriy bizga: «Juda koʻp hadis yozib oldingizlar, qani menga koʻrsatinglar-chi, qancha ekan?»—dedilar. Hisoblab koʻrsak, oʻn besh mingdan ziyod, hadis yozib olibmiz. SHunda Imom al-Buxoriy ularning hammasini yoddan aytib berdilar, hatto biz oʻshal yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni ul kishi yoddan aytganda tuzatib ham oldik». Olim Muhammad ibn al-Azhar as-Sijistoniyy: «Men alloma Sulaymon ibn Harbdan hadis ilmini oʻrganar edim. Al-Buxoriy ham biz bilan birga hadis eshitardilar-u, lekin sira yozib olmasdilar. Shunda: «Nechun yozib olmayotir?»— deb baʼzilar soʻraganda, «Hozir barchasini yodlab olib, Buxoroga qaytgach, qogʻozga tushiradi» — deb aytishgan edi» — deydilar. Oʻshal alloma Sulaymon ibn Harb mashhur muhaddislardan boʻlib, Makkai Mukarramada qozi ham boʻlganlar. Xotiralari gʻoyatda kuchli boʻlib, hech bir kitob daftarga boqmay, oʻn minglab hadisni yoddan rivoyat qilar edilar. Oллоh taolo Imom al-Buxoriyga shul qadar kuchli quvvai hofiza, aqlu zakovat va oʻtkir zehn tuhfa etgan ediki, bul fazilatlar

tufayli hatto ustozlari ham ul kishini nihoyatda qattiq izzat-ikrom qilib, huzurlarida dars o‘tishga botina olmas edilar. Bu haqda Fath ibn Nuh an-Naysoburiy: «Men Ali ibn al-Madiyniyni darslarida hozir bo‘lganimda Muhammad al-Buxoriyning ul kishining o‘ng tomonlarida o‘tirganlarini ko‘rdim. Shunda ustoz har bir hadisni zikr qilgach, Al-Buxoriyga hayiqib bir qarab qo‘yar edilar»—deydilar¹⁹.

Ko‘pgina manba’larda ulamolar tomonidan Imom al-Buxoriyning aql-zakovat va quvvai hofizalarini sinash maqsadida uyushtirilgan sinovlar xususida ma’lumotlar zikr qilingan. Shunday sinovlardan biri Bag‘doddagi Dor ul-xilofat (Xalifalik uyi)da Bag‘dod ulamolari tomonidan uyushtirilgan. Bag‘dod muhaddislari buning uchun yuzta hadisni tanlab olishib, ularning matn va isnodlarini o‘zgartirdilar, ya’ni bir isnod matnini ikkinchi bir isnod matni bilan va bir matn isnodini boshqa matn isnodi bilan almashtirib qo‘ydilar. So‘ng, ularni o‘n kishiga o‘ntadan bo‘lib berdilar, yig‘in vaqtida Imom al-Buxoriyga aytishni amr qildilar. Yig‘inga minglab xurosonlik, bag‘dodlik va boshqalar kelishdi. So‘ng, mazkur o‘n kishidan biri o‘ziga topshirilgan isnodu matni chalkash o‘nta hadisdan birini Imom al-Buxoriyga aytib, uning xususida so‘radi, Shunda Imom al-Buxoriy: «Bunday hadisni bilmayman»,—dedilar. Boyagi kishi shu tariqa qolgan to‘qqizta hadisni ham birma-bir aytdi. Imom al-Buxoriy har safar: «Bunday hadisni bilmayman»—deb javob qildilar. Keyin to‘qqiz kishi ham navbat bilan o‘zidagi hadislarni aytdi. Imom al-Buxoriy ularga ham: «Bunday hadisni bilmayman»—deb javob qildilar. Imom al-Buxoriy ularning savollari tugaganini anglagach, birinchi bo‘lib savol bergan "kishiga o‘girildilar: «Ammo, sen aytgan birinchi hadisning matni boshqa bir hadis isnodiga taalluqli bo‘lib, to‘g‘risi mana bunday, ikkinchisining isnodi esa bo‘lak hadis matniga tegishli bo‘lib, to‘g‘risi mana bunday...»— deya u aytgan barcha hadislarning isnodu matnini joy-joyiga qo‘ydilar. Shul tariqa Imom al-Buxoriy mazkur o‘n kishi aytgan hamma hadislarning isnodu matnlarini joy-joyiga qo‘ydilar. Shunda odamlar ul kishining quvvai hofizalariga, aqlu zakovatlariga tan berib, chuqur izzat-ehtirom bildirdilar. Bunday sinov Samarqandda ham uyushtirilgan bo‘lib, to‘rt yuz muhaddis Imom al-

¹⁹ Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O‘zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.25.

Buxoriyning to‘qqiz kun davomida imtihon qilgan, ammo ul kishini, loqal biror hadis xususida bo‘lsada, yanglishtira olmagan. Bag‘dodlik olim Abu Bakr al-Qaluzoniy: «Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga o‘xshash hech bir olimni ko‘rmasdim. Ul kishi ilmga oid har qanday kitobni olib unda keltirilgan barcha hadislarini bir marta o‘qigandayoq yodlab olardilar»—deb yozgan.

Imom al-Buxoriy biz avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirganlar. Ul kishi yozgan asarlar soni yigirmadan ortiq bo‘lib, ulardan «Al-Jomi’ as-sahih», «Al-Adab al-mufrad», «At-Ta’rix as-sag‘iyr», «At-Ta’rix al-avsat», «At-Ta’rix al-kabiyr», «Al-Jomi’ al-kabiyr», «Qitob al-ilal», «Birr al-volidayn», «Asomiy as-sahoba», «Qitob al-kuna» va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. To‘plamdagi hadislar Islom dini ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanmay, mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillilik, kattalarga hurmat, etim-esirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik singari chin insoniy fazilatlarni ham ulug‘laydi.

Mustaqilligimiz yillarida buyuk vatandoshimiz al-Buxoriyning merosini o‘rganishga, uning masjidi va qabrini ta’mirlashga alohida e’tibor berildi. 1996 yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Imom Buxoriyning 1998 yilda o‘tkaziladigan 1225 yillik yubeleyini munosib tayyorgarlik bilan kutib olish haqida maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga asosan Imom al-Buxoriyning Samarqanddagi masjiti va qabri qayta ta’mirlandi. 1998 yili, uning tavallud topgan kunini nishonlashga yig‘ilgan vatandoshlar, olimu, imom-hatiblar, chet eldan kelgan diniy arboblarning bu yangi tarixiy obidaning islomiy qadriyatlarining tiklanishi deb baholadilar. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan bu shijoat musulmonlarning har galdagi haj safaridan oldin kelib ziyorat qilinadigan obidaga aylantirdi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk vatandoshimizning nomlari butun Islom dunyosida katta hurmat bilan tilga olinadi. Islom dunyosining barcha madrasa va dorulfununlarida Imom al-Buxoriyning hadislar to‘plami Payg‘ambar alayhissalomning sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik va dasturulamal hisoblanadi.

II bob. HADISLAR VA IJTIMOIIY HAYOT.

2.1. Hadislarda ijtimoiy masalalarning yoritilishi.

Hadis ilmi yashash, komil inson bo'lish yo'llarini ko'rsatuvchi ilmdir. Agar ular ixlos bilan mutolaa qilinsa, dardlarga darmon topiladi ko'ngilda xayrli ishtiyoqlar tug'iladi.

Mustaqilligimizning ravnaqi uchun, ko'zlagan rejalarimizni sidqidildan amalga oshirish uchun fuqarolarning ma'naviyatini yuksaltirish, ya'ni shaxsning o'ziga bo'lgan talabini oshirish, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga ko'maklashish g'oyat muhimdir. Inson qalban poklanmaguncha jamiyatga foydasi bo'lmas. Hadislar esa inson ruhiyatini tozalovchi xalqchil, singishimli omillardan biridir.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda hadislarga suyangan holda hadislarning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni masalasiga, hadislar vositasida inson dunyosining sinoatlari, ruhiyat manzaralari, fe'lidagi afzalliklari va nuqsonlari haqida mulohaza yuritishga harakat qildik.

Islom ta'limotning asosiy manbalari Qur'oni karim va Sunna nabaviyadir. Alloh taolo mana shu ikki muborak manba orqali odamlarni chin insoniy fazilatlarga buyuradiki, ularga amal qilganlar ikki dunyo saodatiga erishajaklar. Quyida ana shunday ulug' fazilatlardan ba'zilarini o'z ichiga olgan bir nechta hadislarning mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.) shunday deb marhamat qilganlar: *"Musulmonning musulmonda beshta haqqi bor: salomiga alik olmoq, bemor bo'lsa ziyorat qilmoq, janozasida qatnashmoq, ziyofatga chaqirsa bormoq va aksa urib "Alqamdu lilloh" desa "yarqamukalloh" demoq* (muttafaqun alayh). Bu xususda Payg'ambarimiz (a.s.)ning bundan boshqa ham bir nechta hadislari mavjud bo'lib, ularda musulmonning musulmon birodaridagi haqqi beshta emas, balki oltita va hatto etita ekanligi qayd etilgan. Bundan maqsad — musulmoning musulmonda nechta haqqi borligini birma-bir sanash emas, balki ularning mohiyati nimadan iborat ekanligini ta'kidlashdir.

1. Ikki musulmon kishi uchrashganda salomlashish musulmonlik alomati va odoblaridan bo‘lib, u islomdagi eng yaxshi amallardan biridir. Rasululloh (s.a.v.)dan: "Islomdagi amallardan eng yaxshisi qaysi, deb so‘rashganda, *Muhtojlarga taom bermoq hamda tanigan va tanimagan kishiga salom bermoq*, deb javob berganlar (muttafaqun alayhi). Salomlashish odobi haqida ham ko‘plab hadislar vorid bo‘lgan. Ularning orasida: "*Ulovdagi kishi piyodaga, yulovchi to‘xtab turgan kishiga, ozchilik ko‘pchilikka va yoshi kichik yoshi katta odamga birinchi bo‘lib salom beradi*" deyilgan (muttafaqun alayhi). Ammo kichikdan katta yoshdagi odam kamtarlik va ta‘lim uchun salom bersa, bu fazilatdir. Alloh taolo Qur‘oni karimda: "Qachon sizlarga biror salomlashish (iborasi) bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olingiz yoki o‘sha (iborani)ni qaytaringiz" — deb marhammat qilgan ("Niso", 86). Mana shu oyatga binoan, salom berish so‘nnat, alik olish esa farz bo‘lib, salom beruvchi "assalomu alaikum desa, "va alaykumu-s-salom va rahmatulloh" deb alik olinadi. Agar u "assalomu alaykum va rahmatulloh" deb salom bersa, "va alaykumu-s-salom va rahmatullohi va barakotuh" deb alik olinadi.

2. Bemor kishini ziyorat qilish ham islomda buyurilgan amallardan bo‘lib, uning fazilati haqida Paig‘ambarimiz (a.s.) shunday deganlar: "*Musulmon kishi qachon bemor birodarining ziyoratiga borsa, mo u erdan qaytib kelgunicha jannat bog‘larida sayr silib yurgan bo‘ladi*" (Imom Muslim rivoyati). Bemorning ziyoratiga borishning ham o‘ziga xos odoblari bor. Masalan, bemor ko‘rgani borgan odam uning haqqiga shifo so‘rab duo qiladi, sog‘ayib qolganini aytib ko‘nglini ko‘taradi, yonida ko‘p o‘tirmaydi, oldida taom emaydi.

3. Musulmonning ikkinchi birodari zimmasidagi haqlaridan yana biri — yaqini yoki tanishlaridan birining vafot etganini eshitganda, uning janozasida qatnashishdir. Albatta, janoza namozida mayyitning haqqiga Allohdan mag‘firat so‘rab duo qilinadi. Alloh taolo ko‘pchilikning duosini ijobat qilib, mayyitning gunohlarini mag‘firat aylash haqida Paig‘ambarimizdan quyidagi hadis vorid bo‘lgan: "*Biror musulmon vafot etib, uning janozasida Allohga biron-bir narsani sherik qilmagan qirq nafar kishi qatnashsa, Alloh taolo ularning mayyit haqqiga*

qilgan duolarini ijobat aylaydi (Imom Muslim rivoyati). Bundan tashqari, janozada qatnashishning savobi haqida ham hadis rivoyat qilingan bo‘lib, unda: *“Janoza namoziga qatnashgan kishiga bir qiyrot savob, dafnda ham qatnashganga ikki qiyrot savob bo‘ladi. Bir qiyrotning mixdori Uxud tog‘iga tengdir”*²⁰, deyilgan (Imom Buxoriy rivoyati)

4. Musulmon kishi bir birodari tomonidan biron-bir xayrli ziyofatga, xususan, nikoh to‘yiga chaqirilsa borishi shartdir. Darhaqiqat, nikoh to‘yi ko‘pchilik bilan o‘tadigan ziyofat bo‘lib, tuy egasi uni o‘z xursandchiligini yaqinlari bilan baham ko‘rish maqsadida tashkil qiladi. Taklifiga javoban to‘yga tashrif buyurish bilan uning xursandchiligiga xursandchilik qo‘shgan bo‘ladi. Qolaversa, yoshlarning haqqiga Allohdan baxt-saodat va baraka tilab duo qiladi. Shuning uchun ham ziyofatga chaqirilgan kishi hatto o‘sha kuni nafl ro‘za tutgan bo‘lsa-da, lekin unga borishi, taom emagan taqdirda ham birodarining haqqiga duo qilib o‘tirishi quyidagi hadisi sharifda alohida ta’kidlangan: *“Qay biringiz ziyofatga chaqirilsangiz, albatta, unga boringiz. Agar ro‘zador bo‘lsangiz, duo o‘qib turing va agar ro‘za tutmagan bo‘lsangiz taomdan tanovul qiling”* (Imom Muslim rivoyati).

5. Islomda mumin-musulmonlarning bir-birlariga nisbatan hurmat va burchlari shu darajada yuqori qo‘yilganki, hatto aksa urganda ham uning haqqiga Allohdan rahmat tilab duo qilish birodarlik burchi hisoblanadi. Bu xususda "Esnash — shaytondan, aksa urish — Rahmondan" mazmunidagi hadis mavjud bo‘lib, aksa urgan kishi "alhamdu lilloh", ya’ni Allohga hamd bo‘lsin desa, uni eshitgan kishi "yarhamukalloh", ya’ni senga Allohning rahmati bo‘lsin deb javob qaytarishi vojib. Agar ko‘pchilik odamlardan iborat jamoa turgan bo‘lsa, ulardan bir nafari mazkur iborani aytsa ham etarli bo‘ladi.

Mazkur haq-huquqlarga rioya qilish bilan mo‘min-musulmonlar o‘rtasida mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va samimiylik hislari yanada ziyoda bo‘ladi, ulkan savoblarga erishiladi.

²⁰ Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999. –B.39.

Har bir banda musulmonchilik haqqini bajarish bilan birga, Parvardigor oldidagi bandalik burchini ham ado etmog‘i lozim. Ya’ni Alloh taolo bizni bu dunyoda behisob ne’matlar bilan siylagan ekan, buning shukrini bajo keltirmog‘imiz, bu ne’matlarni bizga in’om etilgan omonat deb bilmog‘imiz darkor.

Ne’matlarning shukri ikki yo‘l bilan ado etiladi: biri — shu ne’matga etkazgan Haq subhonahu va taologa hamdu sano aytish, ikkinchisi — berilgan ne’matlarni isrof qilmay, ulardan ehtiyoj darajasida foydalanish. Alloh taolo Qur’oni karimda bu haqda: "...Qasamki agar (bergan ne’matlarimga) shukur qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukurchilik qilsangiz, albatta azobim (ham) juda qattiqdir", deya ogohlantiradi ("Ibrohim", 7).

Ma’lumki, bugun kundalik hayotimizni xonadonlarimizdagi bebaho gaz, suv va elektr kommunal xizmati kabi ne’matlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Bularning naqadar qadrli va beminnat ne’mat ekanligini, uyimizda bir kun chiroq yoki gaz bo‘lmai qolganida yanada teranroq anglab etamiz. Taassufki, ba’zi fuqarolarimiz mazkur ne’matlarning qadriga etmay, go‘yo bular tunganmas boylik, cheksiz xazinadek keragidan ortiqcha sarflab, isrof qiladilar. Isrof qilish bilan birga, foydalanilgan bunday xizmatlar uchun o‘z vaqtida haqqini ham to‘lamaydilar. Albatta, bunday ishlar musulmonchilikka ham, insoniylikka ham to‘g‘ri kelmaydi. Zotan, Payg‘ambarimiz alayhissalom: "Bizlarni aldagan, omonatga xiyonat qilgan bizlardan emas", deb marhamat qilganlar.

Payg‘ambarimiz hadislarida qo‘shlar bilan totuv yashamoqlik haqida bong uriladi. Mana bir hadisda «*Qo‘shnilaringizga muruvvat qilingiz*», - dedilar *Rasululloh (s.a.v.)*. «*Qo‘shnilarim ko‘p, qaysi birini ko‘proq yo‘qlay*», — deb so‘radilar u kishidan. «*Eshigi eshigingga eng yaqiniga*», — deb javob berdilar. Ushbu hadisni ham sharhlashga harakat qilib ko‘raylik. Nega «eshigi eshigingga eng yaqiniga» deya ta’kidlanmoqda? Chunki “hayotimiz davomida eng ko‘p malolimiz yon qo‘shnilarga tushib keladi! Ular hatto biz deb chekadigan aziyatlarini qismat deb biladilar, chidab yashashga o‘zlarini ko‘ndiradilar: eng kichik misol bo‘lmish — yog‘ dog‘imizning hidlariga-yu itimizning akillashlariga,

bolamizning to‘poloni, bot-bot bo‘lib turadigan er-xotinchilikning beparda mojarolariga sukut bilan dosh beradilar. Bizning shovqinimiz soat nechada tugasa, qo‘shni sho‘rlik o‘shandagina uxlay oladi!²¹”.

Yon qo‘shni yomonlarning yomoni bo‘lsa ham, sizga qorovul! Eshigingizni bejo taqillatganga darhol ko‘rinish beradi, uyingizdan tutun chiqsa, birinchi bo‘lib paqir olib yuguradi! Bolamizga isitma kirsa ham, kelinimizni dard tutib qolsa ham qo‘shniga chopamiz! Dazmol kuyib qolsa, ishga borolmaysiz, gugurtingiz nogahon tugab qolsa, qozoningiz qaynamaydi, tuzingiz tugab qolsa, ovqatingiz eyilmaydi, kalitingiz bo‘lmasa, yomg‘irda ivib turaverasiz! Va yana, yana... sanayverish mumkin. Bunday holatlarning barida qo‘shni — xaloskor, «Tez yordam»ning o‘zi! Bola-chaqangdan aybingni hargiz yashira olmaganing kabi, sening ne ekanligingni obdan bilguvchi va bilganini ichiga yutib yurguvchi ham yon qo‘shningdir! Bularni hech qachon o‘ylab ko‘rmaymiz, fe‘limiz tutib qolsa, xatolarini terib, qora daftarga yozib yuramiz, ammo ularning yonimizda ekanligining bahosini hech tarozuga solmaymiz! Agar o‘lchab ko‘rganimizda edi, qarindosh-urug‘imizdan ham ko‘ra ulardan ko‘proq qarzdor ekanligimiz ma’lum bo‘lardi, ehtimol.

Yana bir hadisda ayollarga murojaat etilar ekan, *«Qo‘shniga tuhfa qilingiz, agar bergani hech narsangiz bo‘lmasa, bir-biringizga hech yo‘q qo‘y tuyog‘ini bo‘lsada iliningiz»*, deyiladi. Bunda ham hikmat bor. Ehson qilsangiz, birinchi duogo‘yingiz, to‘y qilsangiz, uyigacha bo‘shatib berguvchi, boshingizga ish tushganda yoningizda yupatguvchingiz u. Bolangiz tug‘ilgani haqidagi xabarni ham birinchi bo‘lib qo‘shniga aytasiz. Shu kundan boshlab farzandingiz uning qaroqlariga joylashadi: bolangizning har bir kunini, har bir qadamini ko‘rib boradi. Yaxshi xulqini duo qiladi, xato ustida ushlasa, qulog‘ini cho‘zib qo‘yadi. Eng muhimi, go‘dagingiz qo‘shnining ibratli ishlarini yozin-qishin kuzatib boradi, sizdan o‘rganmaganini undan o‘rganadi. Mana o‘zingizni oling, bolaligingizni esladingiz deguncha, ho‘v o‘sha qo‘shni amaki va momolarning turfa tutumlarini lazzatlanib yodga olasiz. Siz hanuz xotirlayapsizmi, demak, qaysi birigadir

²¹ Sodiqova T. Ayolga qasida. –T.: O‘zbekiston, 2013. –B. 33.

o‘xshashni havas qilib, ehtimolki, ularga taqlid qilib yashab kelyapsiz! Bu ozmuncha qarzdorlikmi!

Yaxshi qo‘shnichilikni xalqimiz muqaddas deb bilgan. Hovli ichidan albatta qo‘shnilarga darichalar ochilgan. Bu darichalarga hech qachon zanjir solinmagan, demak, kun-tunning xohlagan paytida bir-birlarinikiga kirishga hadlari siqqan. Daricha ochishning imkoni yo‘q holatlarda tuynuk qoldirilgan. Daricha-yu tuynukning yagona maqsadi o‘zaro yo‘qlovlar uzatib turish va bir-birlarining holidan bevosita xabardor bo‘lib turishdir. «Qo‘shnining qo‘shnidan ettidan bir haqi bor» naqlini xalqimiz yodlab yuradi. Non yopilsa; hali savatga tushmay, qo‘shni haqi uzatiladi. Tansiq taom tayyorlansa, oldi nasiba qo‘shniga.

«Qiyomat kuni qo‘shnidan» degan gap ham bor. Allohning oldida ham, bandasining oldida ham sizning yaxshi-yu yomoningizga guvohlikka o‘tadiganlar ham shular. Qo‘shni rozi bo‘ladigan savobli ishlarni ko‘proq qilmoq joiz. Hatto yaxshi hisoblanmagan hamsoyaga ham muruvvatlarimiz ko‘p bo‘lsa qani? Chunki himmat, saxiylik — nur, muzni ham eritadi, olijanoblik urug‘ini ekadi. Qarabsizki, siz birovning afzallashuviga sababchi bo‘lib qolasiz!

Qur‘on va hadisda musulmonlarni bir birlariga yaxshilik qilishliklariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Payg‘ambarimizning yana bir hadislarini aynan shu haqda *“Odamlarning yuradigan yo‘lidan tikanni (xalaqit beruvchi narsani) olib tashlagan kishining o‘tgan va keyingi gunohlarini Alloh mag‘firat qilsin”*²².

Odamlarning o‘zidan ko‘ra Alloh ularni ko‘proq avaylaydi. U doim bizning ko‘nglimizga solib turadi va o‘zimiz bilmagan holda ko‘plab savob ishlarni ado etib yuramiz: birovni ranjitmaslik uchun gapni tanlab aytamiz; kimsaning ko‘ziga botmaslik uchun, u yoq-bu yog‘imizga qarab ko‘chaga chiqamiz; odamlarning kayfiyatini ko‘tarish uchun, darvozamizning oldini orasta qilib qo‘yamiz.

Insonlarning koriga yarash borasida ikki toifaning — hunarmandlar va savdogarlarning ham o‘rni katta. Hunarmandi bilan savdogarining imoni bor yurt barqaror bo‘ladi degan gap bor. Qo‘ldan ketguncha emas, odamlarni rozi qilish

²² Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999. –B.109.

uchun ixlos bilan buyum yasagan hunarmandning habibi ham, tabibi ham Allohdir. Baraka-yu baxt shuning uyida! Savdogarlar esa manzillarga mol emas, ma'rifat va madaniyat tashiydilar. Nazari to'q kishigina bu kasbga qo'l ursa yaxshi.

Haqiqiy savdogarlar avvalo didli — xalqining ma'naviy yuksalishini, salomatligini o'ylab mol tanlaydigan, qasami insof va doimo ehsonli bo'lganlar. Tariximizdan ma'lumki, yurt uchun ko'plab foydasi tekkanlar shu toifa vakillaridir. Shu o'rinda Tursunoy Sodiqovanning bir suhbatida aytib bergan voqealarini keltirib o'tishni joyiz topdik.

“Andijonda butun umrini odamlar uchun go'zallik yaratishga sarflab bir ulug' inson — Solijon aka Mehmonov yashab o'tdi. U Xonobodda yigirma yil ijroqo'mga rais bo'ldi va xalqni yalpi ko'tarib, toshloq, to'qayzor bo'lgan bir joyni bog' shaharga aylantirib ketdi. Uning shunday o'g'itlari bor edi: «Jamiyat taraqqiyoti bir jihatdan shaxsning kayfiyatiga bog'liq, o'sha nuqtani mahkam ushlab kerak. Bir kuni gazetada o'qib qoldim. Amerikada tanazzulga ketayotgan korxonada tajriba o'kazibdilar. Ya'ni zavodning bir bo'limini yaxshilab ta'mirlagan ekanlar, ish unumdorligi qirq foizga ko'payibdi. Ammo taajjublanarliligi shuki, hali xarobligicha turgan ikkinchi bo'limda unumdorlik yigirma foiz ortibdi. Ulardan: «Nega shu kungacha orqada kelib, endi bunday natijaga erishdinglar», deb so'rasalar, «Yaqinda bizning bo'lim ham ta'mirlanar ekanda», der emishlar. SHu menga saboq bo'ldi. Bu paytlar men teri oshlash zavodida ishchi edim, vaqt o'tib, shu korxonaga direktor etib sayladilar. SHu kungacha zavod rejasini hech bajara olmas, kishilarning po'stagini qoqadigan majlislar ora kunda bo'laverar edi. Men boshqacha yo'l tutdim. Ishni zavod hovlisidagi uyum-uyum axlatlarni tozalatishdan boshladim. Tahoratxonalarni, qo'l yuvadigan joylarni tartibga keltirdim. Emakxonalarni rostladim. Ishchilar yuradigan yo'lkalarni asfaltlatib, chetlarini oqlab, keta-ketguncha gul o'tqazdim. Sahnga daraxtlar ektirib, ko'kalamzorni ko'paytirdim. Ish haqida, reja haqida og'iz ochmadim. Mo'jiza yuz berdi: odamlarning chehralari yorisha boshladi. Hech qanaqa siquvsiz, baqir-chaqirsiz ishlarimiz rivojlana ketdi», — deb hikoya qilgandi... Eh, birodar, ilohim, bu dunyoda bor ekanligimizni his etib turaylik!

YArab turgan paytda oyoqlarni gursillatib bosmoq, qo‘llarni chappar urib ishlatib qolmaq kerak. Xudo bergan, g‘ayrat degan imkondan go‘zal mehnatlar yasab, atrofga rohatlar ulashib, sen tufayli yayraganlarni ko‘rib, o‘zingning ham ko‘ngillaringni gulga to‘ldirib yashamoq kerak!²³ Ko‘ryapmizki, hadislarda insonni faqat yaxshilikka undash etakchilik qiladi. Shu o‘rinda *“Islomda birovga zarar berish ham, zararlanish ham yo‘q”*, degan hadisni ham tahlil qilib ko‘raylik. Janobi Rasululloh (s.a.v.)ga sahobalaridan biri kelib aytibdi-ki, bir mo‘min bor ekan: yil-o‘n ikki oy ro‘za tutarkan, kechalari esa tinmay ibodat qilar ekan. Rasululloh (s.a.v.) o‘sha odamni suhbatga chaqiribdilar va debdilar: «Sen shunday amallar qilar ekansan, ammo aytib qo‘yay, ro‘za tutg‘il, lekin vaqtida ovqatlang‘il. Ibodat qilg‘il, lekin vaqtida uxlag‘il, chunki senda o‘zingning, ko‘zingning, axdi ayolingning haqi bordir!» Bundan ayon bo‘ladiki, o‘zing, ko‘zing va axli ayoling Allohning sendagi omonati, ularni asrab bersang, zararlamasang, Yaratganga bo‘lgan sadoqating shu ekan. Jonimni fido qilib bo‘lsada, Allohga e‘tiqodimni ko‘rsataman deb bo‘lmas! Gap sening bitta joning haqida emas, shu bir joningga ulangan talay jonlar xususidadir. SHuning uchun ham, o‘zingga berahm bo‘lsang, senga Allohning jazosi bordir: yo bemorlik beradi, yo yaroqsizlik, yo eng yomon ko‘ngilsizlik ro‘y beradi! Buning oqibatida qancha odam talafot ko‘rishi — senga suyanib, tikkalanib turgan bolalaring sensiz dovdirab qolishi, jufting nochoru sarson bo‘lishi, ota-onangni rozi qilolmay, qiyomat qarzing elkangda ketishi mumkin axir! ...

Inson — sharif! Bir o‘zi birvarakay bir necha taqdirga suv va nur uzatib turgani uchun ham uning unvoni shunday! «O‘zingda o‘zingning haqing bor» degani, atrofga balogardon bo‘lishga yarash uchun, o‘zingdagi o‘zingni asray bil, demakdir! Islomda birovga zarar berish ham, zararlanish ham yo‘q deyilishining bir ma‘nosi shu.

Bizning din eng insonparvar dindir. Asmo binti Abu Bakr rivoyat qiladilar: *«Men Rasululloh (s.a.v.)ga: «Onam meni sog‘inib kelibdilar, muruvvat ko‘rsataymi, nima deysiz?» — dedim (Onam hanuz islomga kirmagan edilar).*

²³ Sodiqova T. Ayolga qasida. –T.: O‘zbekiston, 2013. –B. 24.

Janob Rasululloh: «Ha, onangga muruvvat qil!» — deb javob qildilar». Garchi u ayol mushrik bo'lsada, unga ziyon ravo ko'rilmayotir. CHunki u onai muhtarama! Islomda «eng og'ir gunoh ota-onaga oqlik (itoatsizlik, hurmatsizlik) qilishdir» deyiladi. «Siz mening xohishlarimga qarshi chiqyapsiz, sizday onadan kechdim» degan farzand mo'min sanalmagay! Nomunosib otasidan yuz o'girib ketgan va yo unga qo'l ko'targan o'g'il ham nomusulmondir.

Urva roziyallohu anhu Oysha onamizdan naql qiladilar: *«Bir kishi Rasululloh (s.a.v.)ning huzurlariga kirmoq uchun ruxsat so'radi. Janobi Rasululloh uni ko'rgach: «Bu odam — qabilaning yomon birodari, bu odam — qabilaning yomon farzandi!» — dedilar. So'ng, boyagi kishi kelib o'tirgach, janob Rasululloh unga ochiq chehra bilan yuzlandilar. U chiqib ketgach, Oysha onamiz: «Yo Rasululloh, uni ko'rishingiz bilan qo'pol gaplarni aytdingiz, keyin esa ochiq chehra bilan yuzlandingiz?!» — dedilar. Janob Rasululloh: «Yo Oysha, qachon mening badxulq bo'lganimni ko'rgansan?! Qiyomat kuni Alloh nazdida eng yomon banda odamlar yomonligidan hazar qilib qochadigan kishidir», — dedilar». Ko'rib turibsizki, yomon sanagan kishimizga ham ochiq chehra bilan munosabatda bo'lish uqdirilmoqda.*

«Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz, birlashtiringiz, bezdirmangiz» deyiladi Qur'oni karimda. Inson bolasiga buyuk muhabbat izhor qiluvchi murojaatlar bu! Ibodatda, murosada, yashash tarzida, birovni sevishda-yu birovdan nenidir talab qilishda, bola tarbiyasida, ilm o'rganishda hamma, hamma narsada aslo murakkablashib ketmaylik, chunki u jonni qiynaydi! Jon esa Allohnik, qiynashga haqqimiz yo'q! Qur'on so'zlari biz uchun muqaddasdir. Yurakka yozib saqlamoq, amadda ixlos bilan qo'llamoq kerak.

Keling, “*Odamlar bilan murosa qilish ham sadaqa*” degan payg'ambarimiz hadislarini o'rganib ko'ramiz. «Sadaqa baloni qaytarur» degan naqlni bolaligimizdan beri bilamiz. Sadaqa qo'rg'on bo'larkan, sadaqa xaloskor ekan. Lekin nima sadaqa bo'la oladi? U faqat nochorga yoki devonaga beriladigan hadyami? Yana shunday hadis bor: «Odamlarga nisbatan yomonligingni to'xtat, shu o'zingga sadaqa hisoblanadi». E'tibor qildingizmi, bexavotir yashash uchun

shu shartni bajarish shart, ya'ni odamlarga tinmay muruvvat qilish kerak ekan! Gar bu qo'lingizdan kelmasa, hech yo'q birov sizdan zarar ko'rmasin, ya'ni birovning aybini qidirmang, dilini og'ritmang, kishining obro'si, Alloh bergan imkonlariga hasad qilmang. «Haq nazar qilgan kishini bandasi xor aylamas» degan ekan mashoyixlar, birovlarni obro'sizlantirishga aslo urinmang, al-qissa, o'zingizdan obro' ketadi, demakki, unga tilagan yomonligingiz o'zingiz tomon yurib qoladi! Bu Alloh sizdan yuz o'girdi degan gap.

Nuqsondan qutulolmagan insonchilikning ishi ko'pincha «olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim»dir! Odamlardan e'tibor kutaveramiz, ammo o'zimizdan ham e'tibor kutayotganlarini hadeganda unutib qo'yamiz. Odamning mardi ko'ngilparvar bo'ladi, birodar, birov sizni betama, xolis xursand qilsa, darhol undan qarz bo'lganingizni dilingizga tugib qo'ying! Sizga shu niyatning o'zigayoq savob yozilajakdir. Agar o'zingiz birovga himmat qilguday bo'lsangiz, ya'ni sadaqa qilsangiz, bilingki, sizga kelgan balolarni Alloh qaytarib turibdi! U bir-biriga mehribon bo'lganlarga mehribondir²⁴.

Savol tug'iladi hadisi sharifda murosani sadaqa deb baholanmoqda. Xo'sh, murosa nima o'zi?

Insonlarga intilib, ularga qalban ehtiyoj sezib yashaydigan odam yaxshi odamdir. Va u hamisha hammaga mos til qidiradi, ya'ni murosa ishtiyoqida turadi. Murosa muomalada ro'parangdagi odamga o'zingni ko'niktirish, uni ayash va tildan o't chiqarmaslikdir. Deylik, hamrohing tajang, tezda xafa bo'ladigan odam (Balki qismatida ko'rgiligi ko'p bo'lib, sirkasi suv ko'tarmaydigan bo'lib qolgan, balki yomon tarbiyachida ulg'aygan yo aqldan qisilgan bandadir!). U o'zini hammaga malol keladigan darajada tajang tutyaptimi, uni bu ko'yga Xudo solgan! Ammo Xudo urganni Xudoberdi ham qo'shilib urishiga izn yo'q, Allohning ishlari faqat O'ziga ayon, bandasi aralasholmaydi. Demak, qanday bo'lsada, bu odamni eritish kerak. Unga uning yaxshi ishlaridan xabardor ekanligingiz haqida lutf qilib ko'ring, qo'lingizdan kelsa, bir-ikki ishlarida ko'makdosh bo'ling. Alohida e'tibor bilan hol so'rashib qo'ysangiz ham, onasi tirilib kelganday yayraydi. Sizni ko'rsa,

²⁴ Sodiqova T. Ayolga qasida. –T.: O'zbekiston, 2013. –B. 127.

yuzidan bulut tarqaydigan bo‘lib qoladi, qarabsizki, oradan beton devor olindi, buning oti — murosa!

Bemorlik nochorlikdir, injiq bo‘lish darajasiga kelgan bemor, ruhan tushkunlikka tushgan kishidir. Hamma go‘zallik, xandon otib kulishlar, gursillab yurishlar va ko‘tarinki kayfiyatlardan o‘zini benasib sezgan kishining ko‘ngliga qil sig‘may qoladi. Uning zardalari va injiqliklarining sababi shu. Agar bemorning ko‘ngli tusayotgan ish oson bo‘lsa, darhol ijro qilsangiz, qancha yaxshi, imkoningiz tanglik qilsa, ma’lum fursatdan keyin ado etishingizni samimiy va’da qiling, pgutina bilan ham u andak sog‘ayadi. Bemor bilan murosa — bu ichingiz ado tamom bo‘lsa ham, kulib turish va unga ko‘tarinki ruh beradigan so‘z topa olishdir. Bugungi unga mehribonligingiz, ertaga boshqa yoqdan ortig‘i bilan o‘zingizga qaytadi. Kasal yotganni malol olgan yo dilini og‘ritgan kishi kun kelib, boshi yostiqqa etganda xor bo‘lmog‘i tayindir!

Xudo sizga tili tezni ro‘baro‘ qiladi. Tili tezlik — qaysidir azobdan tug‘ilgan hosila, zahar odam — kimningdir kasofatidan majruhlangan jon. Bu kasallikdir, bunday odamga rahm darkor. Tili tez kishi birovlarni chaqib, o‘zi maza qiladi deb o‘ylamang. U zaharni avval jonida etiltirib, so‘ngra sizga sochadi, demak, siz bilan baravar o‘zi ham zaharlanadi! Uning bu tortgan azobiga siz sabab bo‘ldingiz, ya’ni uning o‘q otadigan nuqtasiga atoyi tegindingiz, buning evaziga Yaratgan Egam uning so‘zi bilan sizni ham yarador qildi. Bundaylarga kunday ochiq yuz bilan muomala qilingda, yonida uzoq to‘xtalmasdan aylanib o‘tavering! Murosa — shu.

«Murosa-yu madora» deydi xalq. Bu bilan u «murosa bu madordir» demoqchi bo‘ladi-yov! Sen birovga sabr bilan murosa qilsang, ya’ni uni ayasang, Yaratgan sening kuchingga kuch, qudratingga qudrat beraveradi.

Bir hadisi sharifda *“Alloh taoloning o‘zi go‘zaldir, go‘zallikni yaxshi ko‘radi²⁵”* deyiladi. Mana shu hadisni ham tahlil qilib ko‘raylik. Go‘zallik — qarasang, ko‘zni yayratuvchi, tinglasang, dilni yayratuvchi, vujudingga va aqlingga orom berguvchi mo‘‘jiza. Go‘zallikka ehtiyojmandlik ilohiy tuyg‘udir. U inson

²⁵ Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999. –B.129.

bilan dunyoga birga keladigan tug‘ma ishtiyoq. Yo‘qsa, chaqaloq hali chillasi chiqmay turib, hatto onasini tanimay turib, tutmagan bo‘ynini qaltiratib, qiyshaytirib, gullarga yoki gulning rangin suratlariga tikila boshlarmidi? Bir eslang-a, qizaloq yangi qo‘g‘irchog‘i, yangi ko‘ylagini «chiroyli» deb maqtanadi. U shugina yoshida go‘zallik bilan yayramokda! Bolaning ko‘zi eng toza ranglarni tiniq ajratadi. Chunki uning fikratlariga hali mikroba tushmagan, «men-men»lovchi nafs hali paydo bo‘lmagan, moddiyunning olovli tillari hali uni o‘z domiga tortmagan.

Odam bolasi ulg‘ayar ekan, go‘zallik tushunchasini ham o‘zining xohish-istaklari qolipiga solishga urinadi. Vaholanki, sen go‘zallik deb bilgan narsangdan avvalo Alloh rozi bo‘lsin. Uning roziligi esa bandalarining roziligidir. Sening ishlaringga qarab kishilarning chehrasi ochilsa, go‘zalliging shu! E’tibor bersangiz, hadis borki, hammasining zamirida «barcha harakatingda insonlar uchun yaxshilik, qulaylik yaratishga, unga tirgak va dalda bo‘lishga intil» degan da’vat yotadi. «Go‘zallik» tushunchasiga shu nuqtai nazardan yondashmoq kerak.

Haqiqiy go‘zallik kishining qalbida bo‘ladi. U — nur, egasini o‘stiradi, go‘zal insonlardan hayotbaxshlik ufurib turadi. Bunday odam kir joyda o‘tirolmaydi, kir ko‘ylakda yurolmaydi, qozon-tovog‘i yuvilmay qolsa, uxlolmaydi. Chunki «nur» atalmish go‘zallik unga yaqinlashgan g‘aflat va xunuklikni kuydirib turadi. Moskvaning mashhur bir jurnalisti chiroyli gap aytgandi: «Men bayroqni yig‘lab ko‘ziga surtgan odamni fidoyi hisoblamayman, yo‘lda tushib yotgan qog‘ozni chiqindixonaga tashlab o‘tgan kishi undan go‘zalroq va vatanparvarroqdir». Kishining amali chiroyli bo‘lsin.

Hadislar insonlarni bir-birlari bilan ahl bo‘lishga undaydi. Quyidagi *“Jamoatdan ajralmanglar, chunki shayton yolg‘iz kishi bilan birgadir va ikki kishidan uzoqroqdir. Kimki jannat ne‘matlarini xohlasa, jamoat bilan birga bo‘lsin”* deyilgan hadicda ham muminlarni bir birlari bilan ahlikda hayot kechirishliklariga alohida e’tibor qaratiladi. Yaxshilikni siz odamlarga talpingan, odamlarsiz turolmaydigan kishidan kutavering. Alloh suygan bandasini odamparast qilib qo‘yadi...

Nima uchun to‘y ko‘pchilik bilan o‘tkaziladi? Jamoatning duosini olish, dasturxon solib, senga duogo‘y va tarbiyachi bo‘lganlarning ko‘nglini olish uchundir! Sezyapsizmi, g‘oyat xursand paytida ham kishi odamlar orasida bo‘lishni xoxlaydi. Chunki bu ilohiy istakdir, «Birga bo‘lingiz!» degan hukm Alloh dandir!

Yorug‘ dunyoni tark etar payting ham jamoat qurshovida bo‘lasan. Bu gavjumlikning qator hikmatlari bordir. Birinchidan, janoza payti marhumning yaxshi fazilatlariga qancha ko‘p odam guvoxdik bersa, uning uchun shuncha sharofatli bo‘lur, inshoolloh! Ikkinchidan, yaqin kishisidan ayrilib, ustuni qulab turgan odamga g‘amguzor bo‘lish, o‘ziga kelib olguncha suyanch bo‘lib turish ham musulmonchilikdandir. Qolaversa, har bora o‘lim marosimiga borganda intihoning borligi, bu dunyoda hamma mehmon ekanligi, to tirik ekansan, har bir daqiqang g‘animatligiga ishonch hosil qilib, tavbaga kelib qaytasan. Bu ham ilm! Unga ega bo‘lishda esa jamoatga qo‘shilishing sabab bo‘lmoqda.

Goho ertalab juda lanj turasan, hatto o‘zingni bemor sezasan. Ishga borgach esa, bir soat o‘tar-o‘tmas tirilib ketasan, binoyiday ishlab, tetiklashib qaytasan. Bilginki, atrofingdagi kulib yurgan odamlar, ularning salomat va xayrixoh turishlari, sendan samimiy ahvol so‘rashlari vujudingga quvvat uzatdi, sen nurlanding va dadillashding. Jamoat tinmay turli toklar tarqatuvchi va jismingda hisobsiz uyg‘onishlar hosil qiluvchi jonli laboratoriyadir. Shuning uchun ham yaxshilarga yondashmoq, ularning sharofatli nurlaridan bahramand bo‘lmoq, xalqona aytganda, yomonlarning kattasi bo‘lgandan ko‘ra, yaxshilarning kichigi bo‘lib yurish chandon yaxshidir!

Shayton yolg‘izni engadi. Gunohlar yolg‘izlikda sodir etiladi, tushkunlikka va sarosimaga yolg‘iz qolganda tushiladi, bemor yolg‘iz qolsa, dardi og‘irlashadi. Insondan uzoqlashganning holi shu!

Biz birovni sog‘inganda uning qoshu ko‘zi va yo kiyimlarini emas, balki ovozin hamda shu ovoz bilan quloqlarga, yuraklarga yoqadigan qilib aytgan so‘zlarini sog‘inamiz. Payg‘ambarimizning *“Yaxshi suhbatdosh atirfurushga o‘xshaydi, garchi u atridan bermasa ham, xushbo‘y hidi sengacha etib turadi”*

degan hadislarida yaxshi suhbatdosh haqida soʻz boradi. Kimni suygan boʻlsak, soʻzi uchun shaydo boʻlganmiz. Kim deb kuygan boʻlsak, soʻzlarining xumorida ado boʻlganmiz! Soʻz — moʻjizalar shohidir! U egilmaganni egdirib, erimaganni eritadi. Soʻz bilan yomon yaxshiga, nomard mardga aylanadi. Hatto u bilan insonni oʻlimdan olib qolshi mumkin! Dunyoda suhbatdoshiga soʻzni tanlab, terib aytgan odam eng baxtli odam! Va u boshqalarni ham baxtiyor etuvchidir! Qalam axli uchun esa qalam izlari jon ipidir, u soʻz suratini chizolmay qolsa, shoirning joni uziladi! Yaxshi suhbat — malhami tan, yaxshi suhbat — oromi jondir. Bir soʻzlashuv, fikrlashuv dardida kishilar olis shaharlardan bir-birlarini izlab keladilar. Bir dilkash odam duch kelsa, uni tinglab tong ottiradilar, baribir toʻymay qoladilar! Kishilarning koʻziga muhabbat bilan boqib, ixlos bilan aytilgan soʻz tinglovchining dilida inqilob yasay oladi. Soʻzni chiroyli ayting, birodar! Gohida «men soʻzga usta emasman, zeru zabar qoʻyib aytolmayman» degan gaplarni eshitamiz, Aslo unday demang! Gapira oladiganki odamning ichida ming bir qavat soʻzi bor. Har bir inson — soʻz sandigʻi. Faqat roʻparangizdagi odamga qaysi soʻz mos kelishini hushyorlik bilan tanlasangiz boʻldi! Aslida, soʻzni dilingiz tanlaydi, shuning uchun avval dilingizni toʻgʻrilang. Roʻparangizdagi odamni aslo yomon koʻrmang. Garchi u yomon odam boʻlsada, yaxshi soʻz bilan yumshatishni niyat qilib turing. Bu bilan avval oʻzingiz yutasiz, birinchidan, yumshagan odam sizni «otib» qoʻymaydi. Ikkinchidan, dil ogʻritishday ogʻir gunohdan forigʻ boʻlasiz.

Soʻz aytishni biling, birodar. «Oʻtkan kunlar» kitobidagi Kumush bilan Otabekning bir suhbat hali-hanuz yumshogʻu qattiq yuraklarni birday zil-zilaga solib keladi: Otabekning Toshkentdan uylanishi kerakligi qudalarga ochdi-ochdi boʻldi. Shu soniyalarda narigi xonada bu toʻxtam Kumushbibiga uqdirilmoqda²⁶.

Narigi xonada esa Otabek bu gapni Kumush qanday qabul qilishini tasavvur qilolmay, tizzalariga choʻkkanicha, qoʻlidagi Fuzuliy devonini ham unutib, muz qotib oʻtiribdi. Uning nazarida dunyo hozir charxpalakday aylanib ketadi, mana hozir uning ichida bir narsa portlaydi, bir narsa chil-chil sinadi! Shunday alfozda oʻtirganida eshik horgʻin ochildi, musavvirlar mehr qoʻyib chizgan suratday

²⁶ Sodiqova T. Ayolga qasida. –T.: Oʻzbekiston, 2013. –B. 44.

Kumush ko‘rindi. U asta kelib, etaklarini mayin shildiratgancha Otabekning qarshisiga havoday qo‘ndi. Otabek uni oxirgi marta ko‘rayotganday, yuzlariga ko‘zi bilan emas, joni bilan termuldi. Mahbubasining yuzi-yu qaboqlari yig‘idan ko‘pchib ketgan edi.

—Kim yig‘latdi sizni?

—Yig‘labmanmi?

—Ko‘zingiz, koprakingiz...

—O‘zi shunaqa...²⁷

Javobni qarang! «O‘zi shunaqa» emish! Yurakni sidirib soladigan javob bu! Otabekning dunyosini ostin-ustun qiladigan javob bu! Shu ikkitagina so‘zga osmonga etgulik dodu faryodlar cho‘kib turibdi! «Bundan keyin shundoq qiyofada yashash menga qismat endi» degani bu. «Siz tufayli diydasi giryonlar safiga qo‘shildim» degani bu. «Yuzimning oftobi so‘ndi, bundan buyon meni ko‘z yoshlarim dengizidan topaverasiz endi» degani bu!

— Men rozi, men ko‘ndim, - dedi daf‘atan Kumush, bu so‘zni nimadandir qo‘rqqandek shoshilib aytdi...

Axir Otabekday yordan ayru tushishga chidab bo‘ladimi?! Axir kishi o‘z rizoligi bilan o‘z yuragini irg‘itib ota biladimi? Jon rishtasi bilan bog‘langan kishisini o‘zga chimildiqqa o‘z qo‘li bilan kuzata biladimi?! ... SHu ikki og‘iz so‘zni aytdi-yu, Kumush Otabek uchun yanada ulug‘lashdi, bebaho malakka aylandi! Ayriliqni-yu, ko‘z yoshlarini va shayton vasvasalarini soyada qoldirib, Kumush qiyofasida yuksalib borayotgan bu mavjudlik Kumush emas, *muhabbat* edi!

Baxt bu haqiqiy muhabbatdir, qolgani o‘taversin, degan xulosa chiqadi bu suhbatdan! Muhabbat ilmini uqasan, aql olasan bu suhbatdan. O‘zingning juda mayda ekanligingdan xijolat chekasan, shaytonning nog‘orasiga raqsga tushib, umring o‘tayotganini tan olasan!..

Xullas, yaxshi suhbat — tarbiyachi, yaxshi suhbatdosh — Allohning yuborgan ne‘mati.

²⁷ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008.-B. 369.

2.2. Hadislarda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida.

Oilani mo'jazgina bir jamiyatcha deb faraz qilsak, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi aynan shu «jamiyatcha»ning jipsligiga bog'liq. Demak, qaysiki jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'i nazar, halokatga mahkumdur. Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan eng mustahkam muhabbatdir. Shuning uchun ham u kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbash tuyg'usidir. O'z uyida baxtli bo'lgan kishigina chinakam baxt-lidir. Xarob uydagi baxtsiz odamlardan tashkil topgan jamiyatning halokatga mahkumligi shundan kelib chiqadi. Har bir insonning oila oldida, oilaning jamiyat oldida mas'uliyati bor. Bu ikki ijtimoiy tushunchani bir-biridan ayirish qiyin. Oila bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Soddaroq qilib aytilsa, oilasida halovati yo'q odamning xizmat joyida ham halovati bo'lmaydi. Demak, ishidan baraka ketadi, xizmatdoshlari bilan qo'pol muomalada bo'la boshlaydi. Yoki aksincha, ishda omadi yurishmagan, xo'jayinlardan so'kish eshitgan odam uyga qaytganda alamini oila a'zolaridan oladi. Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bo'lganida, shaxsiy baxtimiz birgina oiladagi muhabbatda o'z ifodasini topganda edi, unda hayot deganlari chindan ham qop-qorong'i saqroga aylanib qolgan bo'lardi. Inson uchun yurakning ma'naviy olamidan tashqari hayotning yana bir buyuk olami — ijtimoiy faollik olami ham bor. Buni inkor etish yoki chetlab o'tishga urinish mutlaqo mumkin emas. SHuning uchun ham axdi kitoblar Allohning bu masaladagi buyruqlariga g'oyat jiddiy munosabatda bo'lganlar. Payg'ambarlar ummatla-rini pok va halol oila qurishga da'vat etganlar. Insoniyat tarixi davomida yashab o'tgan donishmand faylasuflarning diqqat-e'tiborlaridan ham bu ma-sala chetda qolgan emas. O'tmish ustozlarning fikrlari bizlar uchun hamisha qadrli.

“Teran mulohaza yuritilsa, oila bilan ma'naviyatning o'zaro bog'liq tushuncha ekanini inkor etib bo'lmaydi. Chunki xalqimizda ma'naviyati barkamol oila

o‘qimishli va ziyoli oila hisoblanadi”²⁸. Yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz va go‘zal ne‘matlaridan bahramand bo‘lish manaviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Oila deganda bir uy bola-chaqali, piru badavlat keksalari bor xonadon ko‘z oldimizda gavdalanadi. Oila azal-azaldan insonning his-tuyg‘ulari, aql-idroki, ma’naviyati, e’tiqodi, qo‘yingki, butun borlig‘i kamol topadigan tarbiya maskani bo‘lib kelgan. Insonni shaxs sifatida kamolga etkazishda jamiyatdagi ijtimoiy muassasalarning birontasi ham oiladek beqiyos o‘rin tutolmaydi. Otabobolarimizning qadimdan oilani ma’naviyat qo‘rg‘oni, deb atab kelganlari ham bejiz emas. Oila ma’naviyati haqidagi tushuncha va qadriyatlar, avvalo, dinimiz bag‘rida qaror topgan. Kur’oni karimning 10 ta surasida oila, nikoh, taloq, **razo’** (bola emizish) hukmlari bayon qilingan. Jumladan, «Baqara» surasining 221 — 223, 226-237, 240-241 oyatlari, «Niso» surasining 3-4, 19, 25, 34-35, 128-130 oyatlari, «Moida» surasining 5-oyati, «Nur» surasining 32 — 33 oyatlari, «Rum» surasining 21-oyati, «Ahzob» surasining 4, 6, 36 — 38, 49 — 53 oyatlari, «Mujodala» surasining 1 — 4 oyatlari, «Mumtahana» surasining 10—11 oyatlari, «Taloq» surasining 1 — 7 oyatlari va «Tahrim» surasining 1—5 oyatlarida oila haqidagi hukmlar keltirilgan. SHuningdek, Kalomullohning 11 ta surasida, ya’ni «Baqara» surasining 27, 83, 215-oyatlari, «Niso» surasining 1, 36-oyatlari, «An’om» surasining 151-oyati, «Ra’d» surasining 25-oyati, «Nahl» surasining 90-oyati, «Isro» surasining 23, 24, 26-oyatlari, «Ankabut» surasining 8-oyati, «Rum» surasining 38-oyati, «Luqmon» surasining 14— 15-oyatlari, «Ahqof» surasining 15 — 17-oyatlari va «Muhammad» surasining 22, 23 oyatlarida ota-ona va qarindoshlarga yaxshilik qilish to‘g‘risidagi hukmlar mujassam bo‘lgan. «Baqara» surasining 224 — 225 oyatlari, «Niso» surasining 7, 11 — 12, 19, 176-oyatlari,

²⁸ Ismoilov O. Oila ma’naviyat qo‘rg‘oni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.170-172.

«Ahzob» surasining 4 — 5, 37,40-oyatlarida esa meros, vasiyat, **tabanniy** (bola asrash) haqidagi xukmlar keltirilgan.

Islomda paygʻambar Muhammad (a.s.) lafzlari bilan irshod qilingan oila toʻgʻrisida hadislar juda koʻp. Bunday hadisi shariflarda oila munosabatlari juda oʻrinli va adolatli yoritilgan, Quroni karimda esa qatʻiy ogohlantirish va umidlantirish maʼnosidagi oyatlar kelgan. Darhaqiqat, insonlar bir ota, bir onadan yaralgan ogʻa-inilardir. Bu xususda «Niso» surasining ilk oyatida shunday marhamat qilinadi: *"Ey insonlar! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havoni) vujudga keltirgan hamda u ikkovidai koʻp erkak va ayollarni tarqatgan Parvardigoringizdan qoʻrqingiz! Yana oralaringizdagi savol-javoblarda oʻrtaga solinadigan Allohdan qoʻrqingiz va qarindosh-urugʻingiz (bilan ajralib ketishdan sakdaningiz)! Albatta, Alloh ustingazdan kuzatib turguvchidir"* (Niso, 1).

"Ey insonlar!", deya barcha insoniyatga xitob oʻlaroq boshlangan bu oyati karimada bir nechta ulkan haqiqatlar oʻz aksini topgan. Avvalo, bu oyati karima odamlarga ularning inson ekanliklarini eslatadi. Inson oʻzining inson ekanini eslab turishi juda ham foydalidir. SHuningdek, bu oyatda insonlarni yaratgan Xoliq insonlarning asli ham bir jon boʻlgani vasf etilyapti: *"Sizlarni bir jondan yaratgan"*.

Demak, hozirda dunyoda turli-tuman boʻlib yashayotgan, bir-birlari bilan irqiy, milliy, diniy urushlar qilayotgan, "men yaxshi, sen yomon", deb janjallashayotgan kishilarning tana rangiga, qabilasiga, millati yoki irqiga ajratayotgan odamlarning asli birdir. Ularni bir Alloh bir jondan yaratgan. Mazkur oyati karimadagi ulkan haqiqatlardan biri, *"... va undan uning juftini yaratib"* jumlasida oʻz aksini topgan. Yaʼni u jondan uning jufti — xotinini yaratgan maʼnosi kelib chiqadi. Bu esa, oʻz navbatida, ayol kishi haqidagi barcha notoʻgʻri fikr va tushunchalarni chippakka chiqarib, huquqda va dunyo hayotidan baxramandlikda u ham erkaklar bilan teng turishini, u ham bir jondan yaralganini anglatadi. Eʼtibor qiling, *"va ikkovlaridan..."* yaʼni, oʻsha "bir jon" boʻlmish Odam va uning jufti Havodan *"koʻplab erkagu ayollarni tarqatish"* muhim bir haqiqatdir.

Chunki, Alloh taolo agar xohlasa, birdaniga xilma-xil, son-sanoqsiz erkagu ayollarni yaratishga ham qodir edi. Ammo, U bunday qilishni xohlamadi. Er yuzidagi turfa insonlarning turfa aloqalari, oila rishtalari ila o‘zaro bog‘liq bo‘lishlarini iroda qildi. Islomda oilani mustahkamlashga katta e’tibor berilishining siri ham shunda.

Shuningdek, hamma insonlarning nikohli bo‘lishi halollik belgisidir. Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhamat qiladi: *"O‘z oralaringizdan tul (erkak va ayollar)ni hamda qul va cho‘rilaringizdan yaroqlilarini uylantiringlar. Agar (ular) kambag‘al bo‘lsalar, Alloh ularni O‘z fazli bilan boyitur. Alloh (fazlu karami) keng va bilguvchi Zotdir"* («Nur», 32) Mazkur oyati karimada Alloh taolo musulmonlar jamoasiga xitob qilib: *"O‘z oralaringizdan tul (erkak va ayollar)ni hamda qul va cho‘rilaringizdan yaroqlilarini uylantiringlar"*, deb buyurmoqda. Binobarin, musulmonlar jamiyati a‘zolari o‘z oralarida nikohsiz kishilarni qoldirmaslikka harakat qilmog‘i lozim. Shuning uchun ham musulmonlar orasida balog‘atga etgan yoshlarni vaqtida uylantirish, biron-bir sabab bilan oilasiz qolgan eru xotinlarni nikohli bo‘lishga undash savob amallar sirasiga kiradi. Mazkur ishlar ushbu oyati karimaga hamda Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning "Nikoh, mening sunnatimdir, kim mening sunnatimga rag‘bat qilmasa, mendan emas", degan hadislariga amal qilish maqsadida bajariladi. Nikoh orqali eru xotinning bog‘lanishi jinsiy maylni qondirishning eng tabiiy va halol yo‘lidir. Shuning uchun islomda halol nikoh orqali oila qurib yashashga qattiq targ‘ib qilinadi. Oila qurish yo‘lidagi to‘siklar olinadi va kerakli omillar yuzaga keltiriladi.

Islom dinining jinsiy munosabatlar xususida g‘oyatda ma‘qul, nihoyatda maqbul tavsiyalari bor. Birinchidan, nikoh sunnat va savobdir; nikohlangan kishining savobi ortadi. Uylangan kishi uyiga bir hissa yegulik va ichgulik olib kelsa, etti yuz hissa savob beriladi. Ro‘zg‘or tebratish uchun qilingan sarf-xarajatlar jihad qilish bilan barobar hisoblanadi (ya’ni, «jihad» deganda faqat urush nazarda tutilmaydi, savob faqat urush tufayli hosil bo‘lmaydi, bunga ahamiyat bermoq joiz). Hatto nikoxdagi er-xotinning jinsiy aloqasida ham savob bor. Rasululloh (s.a.v.) shu hakda gapirganlarida sahobalar: «Yo Rasulalloh, biz

nafsimizning, shahvatimizning orzusini qondiramiz, bundan ham savob ham topamizmi?» deb soʻrashganlarida javob berdilarkim: «Albatta! Shunday qilmasangiz, gunoh yoʻli bilan qondirishingiz mumkin... Shuning uchun ham savobdir».

Baʼzi odamlar turli bahonalar qilib, turmush qurish va oilali boʻlishni orqaga suradilar. Ushbu bahonalarning eng kattasi kambagʻallik va qoʻli kaltalikdir. SHuning uchun ham oyatning davomida bunga oʻxshash bahonalar bilan nikohni orqaga surishning yaxshi emasligi taʼkidlanmokda:

*"Agar faqir boʻlsalar, Alloh ularni oʻz fazli bilan boy qilur"*²⁹. Yaʼni, faqirlikni bahona qilib, nikohdan qochmasinlar. Balki, nikohga ragʻbat qilsinlar. Alloh oʻzi bilur, kerak boʻlsa, uni boy qilib qoʻyadi. Darhaqiqat, koʻpchilikning oila qurgandan keyin jiddiylashib, roʻzgʻor uchun astoydil harakat qilib, iqtisodiy holati yaxshilanib ketgani kuzatilgan.

Aslida, islom xoʻrlangan ayolni yuksaklarga koʻtaradi. Ayol hatto mahr borasida ham erkindir. Mahr kelinning haqqi boʻlib, unda biror karindoshining zarracha haqqi yoʻq. Hatto ota-onasining ham misqolcha haqqi yoʻq. Lekin ayrim bidʼatta shoʻngʻib ketgan qishloqlarimizda qalin (qalin dinda yoʻq, oldi-berdisi gunoxdir), sut puli (bu undanda yomonroq, chunki bunda onadek moʻtabar zot qizini boqqanini minnat qilgandek boʻladi) va boshqa toʻlovlar vositasida qizlarini "sotadilar". Qiz bechoraning erki, tana haqqi boʻlgan mahri nima boʻladi?!

Yurtimizda istiqloldan keyin ayol qadri va shaʼni tiklanib, u oila va jamiyatda oʻzining munosib oʻrniga ega boʻldi. Jumladan, oilaning mavqei Asosiy Qonunimizda kafolatlanib qoʻyildi: "Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish huquqiga ega"³⁰.

Muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 2012 yil Oʻzbekistonda "Mustahkam oila yili" deb eʼlon qilindi. Bizningcha, bu nihoyatda oʻrinli va ayni muddao boʻldi. Zero, mutahkam oila muammosi hozirgi vaqtda dunyoning koʻpgina davlatlarini oʻylantirib kelayotgan olamshumul, zamonaviy ibora bilan

²⁹ Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli toʻplam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999. –B.181.

³⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 4-bob, 63-modda.

aytganda, global masalalar sirasiga kiradi. Garchi G'arbdagi ko'pgina davlatlar ilm-fan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan bo'lsalar-da, lekin o'sha davlatlarning jamiyati nurab, jar yoqasiga kelib qolgan. Qancha-qancha go'daklar, kichik yoshdagi bolalar engiltak ota-onalari qilmishlarining qurboniga aylanganlar. Bu ham bo'lsa, oilaviy hayotga e'tiborsizlik, faqat nafs lazzatlari ketidan quvish, xudbinlik va din ta'limotlaridan bexabarlikdan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Islom ta'limotlarida oila qurishga erkak va ayol birdek targ'ib qilingan. Oila qurmasdan tarkidunyochilik yo'lini tutish qoralanib, nikoh ibodat darajasiga ko'tarilgan. Payg'ambarimiz Muhammad (a.s) nikoh faqat o'zlarining sunnati emas, balki o'tgan barcha payg'ambarlarning ham sunnati ekanini aytganlar. Jamiyat hayotida oila qurib yashash naqadar ahamiyatli ekaniga Payg'ambarimiz ham e'tibor qaratganlar: "Ey, yigitlar! Sizlardan qay biringiz oila kurishga qurbi etsa, uylansin. Uylanish nomahramlarga ko'z tashlashdan, buzg'unchiliklardan asraydi. Qurbi etmagan kishi ro'za tutsin, toki ro'za unga to'sik, bo'lsin" (Muttafaqun alayh).

Darhaqiqat, erkak bo'lsin yoki ayol bo'lsin Alloh taolo inson zotini, nafsiy rag'bat bilan yaratgan. Ayni paytda ushbu tabiiy nafs rag'batini halol-pok yo'l bilan qondirishni buyurib, nikohni joriy qilgan³¹.

Islom ta'limotiga ko'ra, oila Alloh taoloning roziligini topish, Payg'ambarimiz (a.s.) sunnatlari, chiroyli odob-axloq bilan ziynatlanish va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. SHuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy aloqalarning eng muhimi sifatida yuksak qadrlaydi. Zero, oila katta jamiyatning kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Jamiyat yomonlik va buzg'unchilikning barcha turlaridan xoli, tinch va obod bo'lishi, avvalo, ushbu kichik jamiyatning tinchligi, totuvligi va ahilligiga bog'liq.

Payg'ambarimizning hadislarida shunday deyiladi: "Odatda ayol kishi to'rt sifati uchun nikohga olinadi: dinu diyonati, molu dunyosi, naslu nasabi va jamoli uchun. Ey, baraka topgur, sen diyonatlisini olgin!" (Buxoriy va Muslim rivoyati).

³¹ Ismoilov O. Oila ma'naviyat qo'rg'oni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.170-172.

Ushbu muborak hadis uylanish va oila qurish borasida odamlar orasida urf bo'lgan narsalar va turlicha dunyoqarashlar haqida xabar beradi. Bu masalada turli fikrdagi kishilarning turfa yo'nalishga ega ekanligi aytiladi. Odamlar turmush qurishda bo'lajak kelinning go'zal bo'lishi, molu davlatli bo'lishi, nasl-nasabi toza, taglik-taxtlik bo'lishi va nihoyat dinu diyonatli bo'lishini istaydilar. Lekin aksar hollarda bo'lajak umr yo'ldoshining diyonati, odobu axloqiga ko'p ham e'tabor berilmaydi. Asosan qizning chiroyi, badavlat xonadondan ekani va nasl nasabigina qiziqtiradi. Dinu diyonati deganda Allohdan qo'rqishi bilan bir qatorda, barcha odamiy xislatlar, odob-axloq, madaniyat va ma'rifatdan xabardorlik tushuniladi. Hozirgi vaqtda aynan mana shu jihat ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Zero, ayolning qalbi go'zal bo'lsa, tashqi go'zalligi va nasl-nasabining sharafi uzukka ko'z qo'ygandek bo'ladi. Ammo qalb go'zal bo'lmasa, tashqi go'zallikdan ne naf?!

Xuddi shunga o'xshab, bu borada kuyovlarga ham e'tibor berish lozim. Qiz uzatishdan avval sovchi bo'lib kelgan kuyovning odob-axloqi, salohiyati va sog'ligiga e'tibor berilmog'i lozim. Hadisi sharifda "Qachonki, huzuringizga (qizingizni so'rab) dinu diyonati va xulqi sizlarga ma'qul bo'lgan va sizlarni qoniqtiradigan bir yigit kelsa, qizingizni unga beringlar. Agar unday qilmasangiz, Er yuzida fitna va katta fasod paydo bo'ladi", deyilgan (Termiziy rivoyati).

Ushbu hadisi sharifda "boyliqi, tagi-taxti qoniqtiradigan" deyilmayapti, balki, "diyonati va xulqi sizlarni rozi qiladigan bir yigit kelsa", deyilmoqda. Lekin afsuski, ko'pincha qizimizga sovchi bo'lib kelgan tomonga badavlat emasligi sababli rad javobi berib yuboriladi. Natijada, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ogoxdantirganlaridek, Er yuzida buzilish va fitna-fasod paydo bo'ladi. Zino va fahsh ishlar avj oladi. Odamlar qizlarini o'zlari sezmagan holda mol-dunyoli, ammo axloqsiz, maishatparastlik, kashandalik, araqxo'rlik va giyohvandlik kabi zararli illatlar girdobida qolgan kishilarga turmushga berib yuboradilar. Natijada, qancha-qancha ko'ngilsizliklar kelib chiqadi, oilalar buziladi. Shu tariqa, otanalar o'z qo'llari bilan farzandlarini saodat qasriga emas, balki baxtsizlik zindoniga bandi qilib qo'yadilar.

Shuningdek, turmush qurish masalasida dinu diyonati va insofliligi bilan tanilgan odamlardan maslahat so‘rash ham maqsadga muvofikdir.

Hozirgi vaqtda jamiyatimizda uchrayotgan ko‘pgina oilaviy nizo va urush-janjallar oqibatini o‘ylamasdan ish tutish va biryoqlama qarash natijasida kelib chiqayotganini aslo unutmash kerak. Bizga mustahkam va ma’naviyati yuksak oila qo‘rg‘oni kerak. Uni vujudga keltirish uchun, birinchi navbatda, bu borada dastlab poydevorni mustahkam qilib yaratishga e’tiborni qaratish lozim. Undan keyin ham erkak ham xotin baravariga oila yukini torta bilish lozim. To‘g‘ri hadislarda oilaning ta’minoti erkak bo‘ynida deyiladi.

Bu xususda Qur’oni karimda shunday oyat mavjud: "Erkaklar xotinlar ustidan (oilalarning boshlig‘i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab - Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba’zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o‘z oilasiga) o‘z mol-mulkalaridan sarf qilib turishlaridir ("Niso", 34). Darhaqiqat, erkaklar aqlan teran, jismonan baquvvat va oilasini nafaqa bilan ta’minlagani uchun oilaga rahbar bo‘ldilar. Islomda bu rahbarlikka ba’zilar o‘ylagandek, "deganim-degan" yo‘sinida zulm o‘tkazuvchi hokimi mutlaq bo‘lish emas, balki oila ta’minotini o‘z gardaniga olishga va buning uddasidan chiqishga qodir katta mas’uliyat sohibi bo‘lish deb qaraladi.

Darhaqiqat, oilaning har tomonlama barkamol, saodatli va tinch-totuv bo‘lishiga er mas’uldir³². Bu haqda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: *"O‘z qo‘l ostingizdagi ayolingiz xususida mas’uldirsiz"*. "Yigit omon bo‘lsa, xavfu-xatar yo‘q", degan nazmiy satrlar zamirida ham aslida shu g‘oya yotadi. Lekin, afsuski, ba’zi yigitlarning dastidan, oilada, mahallada tinchlik yo‘q. Bunday yigitlar oiladagi o‘zlarining vazifalarini ham yaxshi bilmaydilar. Aytish joizki, har birimizning oldimizda ko‘ndalang turgan eng muqim vazifalardan biri — xotinning haqlarini to‘la-to‘kis ado etishdir. Bu — o‘z jufti halolini doimo etarli rizq-ro‘z bilan ta’minlash demak. Bu, bir tomondan, erning kundalik vazifasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, koni savob ishdir. Shu hadisi sharifda *"..Xotiningga bergan ovqating ham sen uchun sadaqadir.."*, deyilgan. Boshqa bir hadisda esa

³² Nomozov B. Oilada erning o‘rni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2012. -B.34-35.

"Xotining ogʻziga tutgan luqmada ham sen uchun savob bor", deyiladi. "Demak, er oʻzi tanovul qilgan ovqatdan xotiniga edirish orqali ham erlik vazifasini ado etar, ham savob olar ekan. "Teng eganni, teng suyubdi" iborasi oila uchun ham aytilgan. Baʼzi erlar oʻzlari oshxoʻrliklarda ovqatlarning sarasini eydilaru, oiladagilarning eb-ichishlari bilan ishlari ham yoʻq"³³.

Eng muhimi, bu taomlar peshona terini toʻkib, topilgan halol luqma boʻlmogʻi lozim. Birovning haqqi, pora, yolgʻonchilik, oʻgʻirlik va boshqa harom-harishdan boʻlmasligi kerak. Erkaklarning yalqov va boqimonda boʻlib, ayollarni roʻzgʻor tebratishga majbur qilishlari, jufti halollarining eb-ichishlari va kiyinishlarida baxillik qilish, gaz va elektr energiyasi kabi kommunal toʻlovlarni ham ayollarning zimmasiga yuklab qoʻyish yoki bulardan oʻgʻirlikcha foydalanish yoki foydalanilgan energiyaning haqqini toʻlmaslik erkaklarga xos boʻlmagan gunoh ishlardir. Er oʻz imkoniyatiga qarab, haddan oshirmay, qisib ham qoʻymay xotinini kiyim-kechak bilan taʼminlashi shart. Zotan, Qurʼoni karimda "Xotinlaringiz bilan yaxshilikda yashang," deyilgan.

Yaxshilik qilishning turlaridan biri, imkon topilganda, jufti halollariga sovgʻalar berib turishdir. SHu bois, hadisi sharifda "Bir-birlaringizga sovgʻa berib turing, chunki u qalbga muhabbat soladi va ginalarni koʻtaradi", deyilgan. Xotinini goʻzal, saranjom-sarishta boʻlishini yoqtirgan er, oʻzi ham koʻrkam koʻrinishli boʻlishga harakat qilmogʻi lozim. Abdulloh ibn Abbos aytgan quyidagi rivoyatda ham shunga ishora qilingan: "Xotinim men uchun oʻzini ziynatlagandek men ham u uchun oʻzimni ziynatlayman".

Bir kuni Umar (r.a.)ning huzuriga bir ayol ust-boshi jirkanchli holatda boʻlgan eri bilan kirib keldi va shikoyat qildi: "Ey, moʻminlarning amiri! Meni bundan xalos eting". Xalifa ayolning gʻazablanish sababini darhol tushunib, uning eriga hammomga tushib, sochi, tirmogʻini olib, oʻziga qarab kelishini buyurdi. Eri hammomdan chiqib, qaytib kelganda, ayol uni tanimay qoldi, bir ozdan soʻng qilgan daʼvosidan qaytib, eri bilan yarashib ketdi. SHunda Umar (r.a.): "Ayollarga nisbatan doimo shunday qilinglar! Sizlar ham ularni ziynatlangan holaa koʻrishni

³³ Ismoilov O. Oila maʼnaviyat qoʻrgʻoni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.170-172.

yaxsha ko'rasizlar-ku?", — dedilar. Lekin ziynatning ham me'yori bor. Risoladagi er xotinini hech vaqt e'tiborsiz qoldirmaydi. Ba'zilar ishga, o'zi qiziqqan narsalarga haddan tashqari berilib ketib, go'zal jufti haloli borligini esdan ham chiqarib qo'yadilar. Bu yaxshi emas, albatta. Oiladagi aksariyat kelishmovchiliklar er-xotinlik munosabatlarining o'z maromida yoki joyida emasligidan kelib chiqadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.): "Mo'min kishi o'z xotinida biron noxush fe'l yoki odatni ko'rsa, darrov jahli chiqmasin. Uning boshqqa ma'qul xulqlari ham borki, shularni esdan chiqarmasin", — deganlar. Buzuq soat ham bir kunda ikki marta to'g'ri gapiradi. Demak, hamma narsaning yomon tomonidan tashqari bir yaxshi tomoni ham bor. Bir kishining xotini doim urushar, kecha-yu kunduz uyida tinchlik bo'lmas ekan. Bir kishi unga: «Bu xotinni taloq qilib, javobini berib yubormaysizmi?» — debdi. Er esa o'sha kishiga shunday javob beribdi: "Javob berish-ku oson, bu xotinda hamma yomon sifatlar jamlashgan-u, lekin bir sifati bor, shu sababli boshqa ishlarini kechirib yuboraveraman. Alloh taolo bunga vafodorlikni bergan-ki, uzoq vaqt yo'q bo'lib ketsam ham, mendan boshqa erkakka qaramaydi".

Risoladagi er xotiniga lutf bilan muomala qilib, uni eng chiroyli ismlar bilan chaqiradi. Agar ayol ovqat pishirgan bo'lsa, yangi kiyim kiya, biron-bir xabar aytsa, e'tibor bilan tinglab, o'z xursandchiligini bildiradi. Uy ishlarida jufti haloliga yordam beradi³⁴.

Bir yigit bir qizga ko'ngil qo'yib, izhori dil qilibdi. Qiz ham unga ko'ngil qo'yibdi. To'y qilib oila qurmoqchi bo'lishibdi. To'y kuniga yaqin qolganda, qizga betoblik etib, yuziga chechaklar toshib ketibdi. Tabiblar bunga davo topa olishmabdi. Oldingi husnidan ayrilgan qiz, endi turmushga chiqmasdan, dunyodan yolg'iz o'tishga qaror qilibdi. Bu voqeadan keyin yigit ham kasal bo'lib, ikki ko'zi ko'rmay qolibdi. Endi, to'yni to'xtatmaylik deb, oila qurishibdi. Uzoq va baxtli hayot kechirishibdi. Vaqti kelib qiz dunyodan o'tibdi. Qizning janozasidan keyin ma'lum bo'libdiki, aslida yigitning ko'zlari ko'r emas, balki sog'lik paytida o'zini

³⁴ Ismoilov O. Oila ma'naviyat qo'rg'oni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. -B.170-172.

yigitga bag‘ishlashga ahdu paymon qilgan qizni baxtli qilish uchun atayin shunday degan ekan.

Oilaning baxtli va saodatli bo‘lishida, albatta, erning vazifasi katta. Ibodat deganda faqat namoz, ro‘za kabilarni tushunib, oilaviy munosabatlarning ham ibodat ekanini unutganimiz sababli, ba’zi erkaklar oiladagi o‘z vazifalariga e‘tibor bermay qo‘yganlar. Hatto ibodatni ro‘kach qilib, oilasining axvolidan xabar olmay qo‘yganlar ham bo‘lyapti.

Oila atalmish jamiyatda ayolarning ham o‘z o‘rinlari bor. “Islom ayollarni e‘zozlaydi”, degan gaplar bor. Islom har bir davrning talablariga javob bera oladigan voqeiy din bo‘lib, unda insoniy hayot qadrlanadi, har bir erkak va ayolning turmush qurib, bola-chaqa qilishi va oilaviy farovon hayot kechirishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilinadi.

Tarixdan yaxshi ma’lumki, johiliyat davrida ayollar huquqi butkul poymol qilinardi. Bir erkak qo‘l ostida o‘nlab ayollar cho‘ri yoki tutqun quldek bo‘lib, ular har qanday haq-huquq, adolat va hurmat-e‘tibordan mahrum edilar. Ularga bir buyum sifatida qaralar edi. Islom kelgach, erkak uchun xotinlar soni ko‘pi bilan to‘rt nafar bulishi mumkinligi va erkakning o‘z jufti halollariga nisbatan har tomonlama adolatli munosabataa bo‘lishi lozimligi shart qilib qo‘yildi .

Islomda erning ayol ustidan rahbar qilib qo‘yilishi erkak zimmasiga jismonan kuchli shaxs sifatida ko‘proq mas’uliyat yuklatish ma’nosida bo‘lib, u oilaning moddiy ta’minotiga javobgarlikdir. Oilada ro‘zg‘orni tebratish er kishining gardaniga yuklatilgan bo‘lib, bu — har bir vijdonli, or-nomusli erkakning muqaddas burchidir³⁵.

Islom ayolni ona sifatida ulug‘lab, oila va sog‘lom jamiyat barpo etishning ko‘p jabhalarini unga topshirib, "Jannat — onalar oyog‘i ostida" degan hikmatni o‘rtaga tashladi³⁶. Ayolni xotin sifatida ham ulug‘lab, erkakning eng yaxshisi va mardi onasi, xotini va mushtipar opa-singillariga, amma-xolalariga ko‘proq

³⁵ Nomozov B. Oilada erning o‘rni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2012. –B.34-35.

³⁶ Isakov A. Islom ayollarni e‘zozlaydi // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2004. –B.71.

yaxshilik qilgani deb, oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirishni asosan er zimmasiga yukladi.

Paygʻambarimizning hadisi muboraklarida ham aytilganidek, "Er — oʻz xotining ogʻirini engil qilishi, qiyinchiliklardan, xor qilib qoʻyishdan va turli tajovuzlardan himoya qilishi kerak. Chunki u tabiatan er kishiga nisbatan zaifa, himoyaga muhtoj xilqat hisoblanadi. U har bir insonga xos boʻlgan ezgu niyat va umid bilan shu oilada baxtimni toparmikanman, orzu-havaslarim ushalmikan, degan umid bilan yangi xonadonga kelin boʻlib tushadi. SHuning uchun har bir erkak, ham oila boshligʻi, ham er sifatida uzaro izzat-hurmat asosida oila totuvligini taʼminlashi va xotining bu oilada oʻzini baxtli his etishi va ildiz otib ketishi uchun zarur chora-tadbirlar koʻrib, harakat qilishi kerak.

Islom ayolning toʻla huquqli inson, mustaqil shaxs ekanini, xususiy mulkka ega boʻlish haqqini, oʻz mulkini erkin tasarruf qila olishini, taʼlim olish haqqini, eʼtiqod, ixtiyor va fikr erkinligini, nasihat, amri maʼruf, nahyi munkar maʼruzalari qilish haqqini, oʻzi xohlagan kishiga turmushga chiqish, xohlagan kishisidan ajrala olish haqqini, oʻz ismi va ota-onasining nomini saqlash kabi huquklarini eʼtirof etadi.

Islomdan oldin esa bunday huquqlarning koʻpi ayollarda yoʻq edi. Bundan tashqari, islom ayol kishiga oʻz ixtiyoriga koʻra insoniyat tarqqiyotida faol qatnashish huquqini ham berdi. Uning vazifasini aslo, faqat nasl koʻpaytirish va lazzat talablariga bogʻlab qoʻyish mumkin emas.

Islom ayollar shaʼnini koʻtaradi, qadimda va hozir ham, baʼzi din va davlatlar mafkurasida bayon qilinganidek, ayolni kamsituvchi, erkaklardan past darajaga qoʻyuvchi, xoʻrlovchi amallar va tasavvurlarni inkor etadi. Iffatli, soliha ayollarni badnom qilishga aslo yoʻl qoʻymaydi.

"Iffatli ayollarni (zinokor deb) haqoratlagan, soʻngra (bu daʼvolariga) toʻrtta guvoh keltira olmagan kimsalarni sakson darradan uringiz va ularning guvohliklarini abadul-abad qabul qilmangiz! Ana oʻshalar fosiq kishilardir".

Islom ayolni behurmat qilish, obroʻsini toʻkish, undan fisq yoʻlida lazzat, fitna va ziinat uchun ommaviy axborot vositalarida tijorat maqsadlaridan foydalanishni

ulkan gunoh va katta jinoyat, kishilik jamiyatini tubanlikka, inqirozga olib boruvchi mash'um omil deb hisoblaydi.

Islom ayolni qiz sifatida ham ulug'laydi. Uni odob-axloqli qilib tarbiyalash mas'uliyatini ota-ona zimmasiga yuklaydi va bu ishni ularning jannatga kirishlariga sabab qilib ko'satadi. Islom soliha, iffatli ayollardan imon va taqvoda oliy darajaga etganlarni barchaga o'rnak qilib qo'ydi. Payg'ambarimizning qizlari — bibi Fotima, zavjai muhtaramalari — Xadicha va Oisha onamiz, Iso alayhissalomning onasi — bibi Maryam, Muso alayhissalomni go'dakligida o'z tarbiyalariga olgan, Far'avning xotini — Osiyo va boshqalar shular jumlasidandir.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.), boshqa payg'ambarlar ham o'z vaqtida ummatlariga ayollarni kishilik jamiyati taraqqiyotida tutgan muhim o'rni to'g'risida va o'larni qadrlash, ulug'lash, avaylab-asrash, himoya qilish, e'zozlash haqida ko'pdan-ko'p pand-nasihatlar aytganlar. Ayniqsa, payg'ambar Iso alayhissalomning o'z ummatlariga bu borada qilgan quyidagi o'gitlari diqqatga eazovordir:

Kimki Parvardigoridan keyin muqaddas, aziz va tabarruk sanaladigan onasini izzat-hurmat qilib qadrlamas ekan, u farzand — o'g'il degan nomga noloyiqdir.

Eshiting, ey imon keltirganlar! Jahon onasi bo'lmish ayol zotini hamma vaqt qadrlang, e'zozlang, chunki unda ilohiy yaratuvchanlikning barcha haqiqati mujassamlashgandir.

Oilada farzandlar tarbiyasi ham nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi. SHuning uchun farzanlar tarbiyasiga katta e'tibor bermoqlik lozim. Payg'ambarimiz (a.s.) bir hadisi shariflarida aytadilarki: "Hech bir ota o'z farzandiga yaxshi tarbiya va odob o'rgatishdan ortiq hadya qilolmaydi". Ikkinchi hadisda esa "Farzandlaringizni hurmatlanglar va ularning odobini go'zal qilinglar", deganlar. Albatta bunda har bir ota-ona axloqiy fazilatlarni, avvalo o'zlarida mujassam etishlari bilan boshqalarga va farzandlariga namuna bo'lishlari kerak. Aks holda farzanlaridan kutayotgan hayrli ishlarni teskarisi bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rni shuni aytish mumkinki, Alloh taolo oilalarimiz va jamiyatimizdagi tinchlik va barakani ziyoda aylab, mehr-oqibatni bardavom qilsin!

Xulosa

Hozirgi kunda madaniyatimiz rivojlanishida islom dinining oʻrni katta ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo xududiga keng tarqala boshlagan islom dini, uning taʼlimotlari asosida dunyoga kelgan maʼnaviy madaniyat hozirgi kunga qadar ardoqli boʻlib qolmoqda.

Mamlakatimizda islom dini ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida faollik bilan aralashuviga olib keldi. Qurʼonda, hadislarda bayon etilgan qator axloqiy qoidalar hayot zaruriyatidan kelib chiqib isteʼmolga kirgan, inson va jamiyat uchun, ularning birini-biriga mustahkam bogʻlab turuvchi tamoyillardir. Masalan, hadislardagi «Sizlarga yaxshilaringiz bilan yomonlaringizdan xabar bersam, sizlarni yaxshilaringiz-yaxshilikka umid qiladigan va yomonlikdan esa oʻzini tiyadiganlaringizdir»,³⁷-degan rivoyat bizni shu maʼnaviy manbadagi qadriyatlar, diniy arboblarning uqtirganlaridek, faqat Muhammad paygʻambar hayoti, faoliyati haqidagi rivoyatlar boʻlibgina qolmay, shu bilan birga ijtimoiy amaliyot zaruriyati tufayli yuzaga kelgan achchiq hayot saboqlaridir. Mazkur saboqlarni puxta egallagan kishi axloq odobda etuk va barkamol boʻladi.

Diniy aqidalarning musulmon olami sajda qiladigan koʻrinishlari oʻzining amaliyotiga oʻta yaqinligi va mahalliy aholining turmush tarzi meʼyorlarini chuqur hisobga olganligi bilan ham qimmatlidir. Chunonchi, xalqning, millat va elatning etnografik xususiyatlari, urf-odatlari, qolaversa, jugʻrofiy yashash muhitining oʻziga xosligi hisobga olinsa samarali boʻladi.

Keyingi paytlarda biz har tomonga ogʻishlaridan xalos boʻlib, hayotning cheksiz ziddiyatlarini xuddi uning oʻzidan anglab etishga kirishdik. Jumladan, diniy qadriyatlarga ham keng yoʻl ochib berildi. Ochigʻini aytganda, islom ogʻushida dunyoga kelgan qadriyatlar sinonimiga aylanib qoldi. Islomga, Qurʼonga, hadislarga boʻlayotgan qiziqish ortmoqda. Xalq oʻzining oʻtmishini chuqur oʻrganish saboqlarini islom qadriyatlari doirasidan qidirmoqchi boʻlib,

³⁷ Axloq-odobga oid hadis namunalari. -T.: 1990. -B. 60.

ma'naviy merosni, eski o'zbek badiiy va ilmiy adabiyotni kengroq o'rganishga kirishdi.

Islom doirasida vujudga kelgan urf-odatlariga e'tiqod, bu din qadriyatlariga ehtiromlarda o'z ifodasini topmoqda. Masalan, keng jamoatchilik O'zbekistonda Ka'ba Madina shahridagi Muhammad qabrini tavof qilishga, ko'plab haj safariga borganlar faoliyatini sergaklik va hurmat bilan kuzatdi. Yaqin 70 yillik tariximiz jarayonida mustaqillik tufayli birinchi bor ko'rsatilgan bunday iltifot va muruvvatdan mamlakatimizdagi barcha musulmonlar juda mamnun bo'lmoqdalar.

Mazkur mustaqillik sharoitida hurfikrlik negizida yuzaga kelgan marosimlar bilan birga diniy qadriyatlar, urf-odatlar inson qalbini munavvar etishdek ulug' xizmat qilmog'i lozim.

SHunday marosimlar umuminsoniy fazilatlar xazinasiga o'zbek xalqining islom aqidolari doirasida shakllangan qadriyatlari bo'lib qo'shiladi, binobarin, bashariyat ma'naviy taraqqiyotiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib qoladi.

Xulosa shundan iboratki, ko'pgina islom qadriyatlari dunyoviy asoslarga ega bo'lib, ularga rioya qilish boshqa diniy qadriyatlarda bo'lgani kabi kishilarni sabotmatonatiga, o'tmish axloq-odob tamoyillariga sadoqatga, hayot qiyinchiliklarini mardona, chidam bilan engib o'tishga o'rgatadi. Mazkur qadriyatlar asriy an'analarimiz va madaniyatimizga, yashash tarzi mushkulotlarimiz va goho tushkunlikka uchragan ruhiyatimizga bog'liq bo'lgani uchun ham hayotimizga yaqin va bizga tushunarlidir.

Hozir ham bir qator islom qadriyatlari o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'naviy va moddiy hayotning turli sohalarida islom nuri ila yo'g'rilgan qadriyatlar izchillik bilan saqlanib, davom etib kelmoqda. To'ylaru ma'rakalarda, turli taomillarda, turmushning turli onlarida xayrli an'analar ko'pincha Qur'on suralari, oyatlari, hadis namunalari orqali odamlar qalbidan o'rin olmoqda. Bunday ehtirom o'tmish avlodlari urf-odatlariga sadoqat ramzi sifatida qabul qilinmoqda va ardoqlanmoqda. Oddiy xalq-ziyoli ham, ishchi ham, dehqon ham faqat tinchilik va hayot farovonligini orzu qiladi. Buni amalga oshirishda esa asriy ezgu aqidalar,

qadriyatlar timsoli bo'lgan islom an'analari ham ma'naviy va amaliy yordam beradi.

Xulosa shuki, hadisi shariflarda aytilgan ibratomuz fikrlar asrlar osha musulmonlarni yaxshi xulq, odat, insof va vijdoniylikka chorlagan. Kishilar o'rtasidagi iliq munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31б.
- 1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Каримов И. А. Жайхун соҳилидаги абадий шаҳар // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 56 б.
- 1.5. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 439 b.
- 1.6. Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятининг шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.7. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.8. Каримов И. А. Бизнинг йўлимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.9. Каримов И. А. Мустақиллик – барча эзгу режа ва марраларимизнинг мустаҳкам мезонидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг давлат мустақиллигининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Халқ сўзи. 2013 йил 2 сентябрь.
- 1.10. Каримов И. А. Амалга оширилаётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш – ёруғ келажакимизнинг асосий омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. O'zbekiston ovozi. 2013 йил 10 декабрь.

1.11. Каримов И. А. Тинчлик ва аҳиллик – мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигимиз асосидир // Ўзбекистон Республикаси И.А.Каримовнинг 9- май “Хотира ва кадрлаш куни” муносабати билан сўзлаган нутқи. O`zbekiston ovozi 2014 йил 10 май.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

II. Asosiy adabiyotlar

- 2.1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 313 b.
Tohir Malik Odamiylik mulki. Tanlangan asarlar 6-kitob. –Т.: Sharq, 2008. –b. 606.
- 2.2. Sodiqova T. Ayolga qasida. –Т.: O‘zbekiston, 2013. –b. 327.
- 2.3. Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –Т.: «O‘zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –b.62.
- 2.4. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 jildli. –Т.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999.
- 2.5. Imom Buxoriy ta'rifi. –Т.: Cho‘lpon, 1996. –B.22.
- 2.6. Uvatov U. Muslim ibn Hajjoj. –Т.: Xalq merosi, 1995.
- 2.7. Muhammad Zohid Qo‘tqu Ibn Ibrohim Al-Bursaviy Ahli sunnat val-jamoat aqoidi. Mutarjim Mirzo Kenjabek. –Т.: Movarounnahr, 1998. –b. 135.
- 2.8. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasini. Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur. – Т.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001.
- 2.9. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tavsifi. Tarjima va tavsir muallifi A.Mansur. – Т.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2004. –b.350.
- 2.10. Ahloq-odobga oid hadis namunalari. – Т.: Fan, 1990. – 163 b.
- 2.11. Boboxonov A. Islom odobi va madaniyati. – Т.: Cho‘lpon, 1995. – 176 b.
- 2.12. Karomatov X. Qur'on va o‘zbek adabiyoti. – Т.: Fan, 1993. – 40 b.

- 2.13. Isakov A. Islom ayollarni e'zozlaydi // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2004. –B.71.
- 2.14. Dehqonov M. Hadislar – ta'lim-tarbiya manbai // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 2,2002. –B.159-160.
- 2.15. Hoji Abdurazzoq Yunus. Bir hadis sharhi // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2007. –B.69-70.
- 2.16. Musayeva M. Hadislar va ijtimoiy hayot // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2007. –B.70-71.
- 2.17. Ismoilov O. Oila ma'naviyat qo'rg'oni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. –B.170-172.
- 2.18. Nomozov B. Oilada erning o'rni // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2012. – B.34-35.
- 2.19. Abdurahmonov A. Ayol qadri // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 4,2006. – B.297-298.
- 2.20. Yunusov A. Ayol dunyoni tebratar // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2006. –B.29-30.
- 2.21. Rahmonov V. Hadis keltirish san'ati // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 2,2002. –B.148-149.
- 2.22. Abdullaev B. Ilk hadis to'plamlari haqida ma'lumotlar // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 3,2012. –B.192-195.